

# 8



Bugun har birimiz cheksiz minnatdorlik hissi bilan Yaratganning buyuk mo'jizasi bo'lgan ayol zotiga – mehribon onalarimiz, qadrli opa-singillarimiz, lobar qizlarimiz sha'niga eng go'zal so'zlarni aytishimiz tabitiyidir. Biz sizlarni eng avvalo fidayilik timsoli deb bilamiz. Mehridaryo qalbingiz, aql-zakovitingiz, sevgi va sadoqatingiz uchun sizlardan bir umr qarzdormiz.

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

# Milliy Tiklanish

1998-yil 10-iyundan chiqsa boshlagan

[www.mt.uz](http://www.mt.uz) / [milliytiklanish2022@mail.ru](mailto:milliytiklanish2022@mail.ru)

tiklanish



«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY GAZETASI

Nº 8 (1196) 2023-yil 8-mart, Adadi - 8657  
chorshanba



## FRAKSIYADA

6

ZO'RAVONLARGA SHAFAQAT YO'Q

Chet elga qoqgan xorijliklar aliment sabab endi kelmaydi. O'g'il bolalar ham zo'ravonlikka uchrayaptimi?

## NUQTAYI-NAZAR

8

AYOLGA  
*Baxt* BERING, SAODAT BERING...

## MUNOSABAT

9

HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI BOSHLANDI

Forum doirasida umumiy qiymati 1,6 milliard dollarlik 20 dan ziyod bitim va shartnomalarni amalga oshirish yuzasidan aniq kelishuvlarga erishildi

## E'TIROF

5

NAVOIY FENOMENI

yoki Navoiy "layk"ka muhtoj emas



FARZANDINGIZNI VIRTUAL OLAMDAN REAL OLAMGA QAYTARING!



ISSN 2010-7714

# MAMLAKATIMIZ XOTIN-QIZLARI UCHUN MUNOSIB SHAROIT VARATIB BERISH – DOIMO E'TIBORIMIZ MARKAZIDA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum,  
muhtarama onaxonlar!  
Munis opa-singillar!  
Dilbar qizlarim!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun O'zbekiston xotin-qizlarini 8-mart bayrami bilan chin qalbimdan muborakbd etaman. Barchangizga o'zimming yuksak hurmatim va egez tilaklarimni bildiraman. Biz bu qutlug' bayramni doimo orziqib, katta quvonch va hayajon bilan kutamiz. Chunki bu shukuhli ayyom yurtimizga yasharish va yangilanish faslini – fasli navbahorni boshlab keladi. Bu bayram dilirozidagi siz, azizlarga bo'lgan samimy humratim va ehtiromimizni, mehru muhabbatimizni yana bir bor ifoda etishiga imkon beradi. Bugun har birimiz cheksiz minnatdorlik hissi bilan Yaratganning buyuk mo'jizasi bo'lgan aylot zotiga – mehribon onalarimiz, qadrlri opa-singillarimiz, lobar qizlarimiz sha'niga eng go'zal so'zlarini aytishimiz tabiyidir. Biz sizlarni eng avvalo fidoyilik timsoli deb bilamiz. Mehridaryo qalbingiz, aql-zakovatingiz, sevgi va sadoqatingiz uchun sizlardan bir umr qarzormiz. Yangi O'zbekistonni barpo etisha, Uchinchi Renaissance buniyodkor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashda sizlarga, sizlarning buyuk murabbiylik fazilatlariningizga tayananamiz.

#### Qadrlri opa-singillar!

Biz erkin va farovon, demokratik, dunyoga ochiq mamlakatni barpo etishda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz ham beqiyos hissa qo'shayotganini albatta yuksak qaralaymiz. Shu borada faqat ayrim raqamlarni keltirib o'tishga ruxsat bergaysiz. Hozirgi vaqtida yurtimizda fidokorona mehnat qilayotgan hurmatli ayollarimizning ulushti tibbiyotda – 77 foizni, ta'lif sohasida – 74 foizni, iqtisodiyot va sanoato tarmoqlarida esa 46 foizni tashkil etmoqda.

Ag'er 2017-yilda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 27 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 33 foizga, siyosiy partiyalar safida 40 foizdan – 47 foizga, tadbirkorlikda 21 foizdan – 37 foizga yetdi.

Bilimli, tashabbuskor va faol ayollarimizdan 2 ming nafarga yaqini davlat va jamaot tashkilotlarda rahbarlik lavozimlarida xizmat

qilmoqda. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi, Senat a'zolari hamda mahalliy kengashlar deputatlarining 25 foizi xotin-qizlar ekanini ta'kidlash lozim. Vatanimiz va xalqimiz oldidagi munosib xizmatlari uchun ayollarimizdan 17 nafari eng oliv mukofot – "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan. Xotin-qizlarimiz orasida 5 nafar akademik, oliv ta'lif muassasalarining o'zida 700 nafardan ziyod far doktori, qariyb 3 ming nafar fan nomzodi, shuningdek, "O'zbekiston xalq shoiri", "Xalq artisti", "Xalq o'qituvchisi" va boshqa faxriy unvonlarga sazovor bo'lgan ko'plab ayollarimiz bor. Bunday jonkuyar opa-singillarimizni Yangi O'zbekistoning oltin fondi, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladи.

#### Hurmatli anjuman ishtirokchilar!

Mamlakatimiz xotin-qizlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularga daxldor ijtimoiy muammolarni hal etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu maqsadda o'tgan yili 872 mingdan ziyod xotin-qizlarning bandigi ta'minlandi. 233 mingdan ko'proq aylarga 4 trillion 700 milliard so'm kredit ajarildi. 252 mingdan ortiq opa-singillarimiz mehnat bozorida talab uyqori bo'lgan kasb-hunarlar va tadbirkorlikka o'qitildi.

Xabarlingiz bor, biz xalqimiz, ayniqsa opa-singillarimizni ko'pdan buyon qiyabn kelgan uy-joy muammosini yechish maqsadida katta dasturlarini amalga oshirmoqdamiz. Agar 2017-yilda mamlakatimiz bo'yicha qariyb 8 ming kvartirrali 191 ta ko'p qavatlari uy-joy qurilgan bo'lsa, o'tgan yili – shunga e'tibor berishingizni so'rmanay – 56 ming kvartirrali 1433 ta uy-joy barpo etildi. Joriy yilda esa yana 90 ming xonadon uchun turar-joylar quriladi. O'tgan yili 14 mingga yaqin opa-singillarimizning uy-joy sharoiti yaxshilandi, qariyb 7 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarga ijara to'lovlarini qoplab berildi.

Mana shunday egez ishlariimiz inqiroz davom etayotgan hozirgi kunda, qanchalik qiyin bo'lmasrin, zarur mablag' va imkoniyatlarni topib amalga oshirayotgan bunday sa'y-harakatlarimiz albatta o'z natijasini beradi. Olyigohlarda tahsil olayotgan xotin-

ularning ertangi kunga ishonchi mustahkamlanganibiz uchun eng muhim natijadir. So'ngi yillarda "Ayollar daftari" doirasida ham katta tadbirlar amalgaloshirilmoqda. Qisqa muddatda salkam 642 ming nafr opa-singillarimizga amaliy yordam ko'rsatilgani bu boradagi ishlariimiz ko'lamidan dalolat beradi. Xotin-qizlar salomatligini arash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, milliy genofondni yaxshilash maqsadida o'tgan yili 9 million nafr aylol tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ularning 3 milliondan ziyodi ambulator, 347 ming nafr esa statcionar sharoitida davolandı.

Yurtimizda xotin-qizlarning sıfati ta'lif va tarbiya olishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mutasakkir jadid bobomiz Abdurau夫 Fitrat ta'biri bilan aytganda, "Onalar – butun bashariyatning tarbiyachilaridir". Darhaqqat, oilada bir nafr qiz o'qib, oliv ma'lumotga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lsa, xonadondagi muhit butunlay o'zgaradi. Buz shu maqsadda xotin-qizlar ta'limi qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim dasturni qabul qildik. Qiyoslash uchun bir misol keltirmoqchiman.

Agar bundan 6 yil avval olyigohlarda 110 ming nafr xotin-qiz tahsil oлан bo'lsa,

hozirgi kunda bu raqam qariyb 5 barobar ko'payib, 500 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu borada qizlarimizning ulushi 50 foizga yetgani tariximizda misli ko'rilmagan natijadir.

Yangi tartibga muvofig, magistraturabda o'qiyotgan 10 mingdan ortiq talaba qizlar uchun 68 milliard so'mdan ziyod kontrakt pullari davlat tomonidan to'lab berildi. 65 mingdan ko'roq talaba xotin-qizlarga 727 milliard so'mga yaqin foizsiz ta'lif krediti ajarildi. Ehtiyojmand oilalarda yashayotgan qariyb 2 ming nafr qizlar, shuningdek, mutaxassisligi bo'yicha besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan 500 nafardan ortiq xotin-qizlarimiz olyigohlarga alohida kvotta asosida o'qishga qabul qilindi.

Dunyoda chuqur iqtisodiy inqiroz davom etayotgan hozirgi kunda, qanchalik qiyin bo'lmasrin, zarur mablag' va imkoniyatlarni topib amalga oshirayotgan bunday sa'y-harakatlarimiz albatta o'z natijasini beradi. Olyigohlarda

tahsil olayotgan xotin-qizlar qizlarim orasidan ilm-fan, siyosat va jamaot arboblar, mashhur madaniyat va san'at, sport namoyandalarini yetishib chiqadi, deb ishonaman. Aziz opa-singillar!

Keyingi yillarda O'zbekiston xotin-qizlarining ovozi xalqaro minbarlardan ham dadil yangravotgani barchamizni quvontiradi. Ular mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar, nufuzli forum va anjumanlarda faol ishtirok etayotganidan xabaringiz bor.

Bu haqda so'z yuritganda, mamlakatimiz tashabbusi bilan 2020-yilda Markaziy Osiyo mamlakatları yetakchi ayollari muoloqotiga asos solinganini ta'kidlash lozim. O'tgan yili esa Toshkentda Shaxnay hamkorlik tashkilotining Xotin-qizlar forumi bo'lub o'tdi.

Bularning barchasi xotin-qizlar muammolarini mintaqaga va xalqaro miqyosda muhokama qilish, ularni hal etish bo'yicha yangi tashabbuslarni ilgari surish imkonini bermoqda.

Fursatdan foydalaniб, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan, ana shundayda sa'y-harakatlarimizni qo'llab-quvvatlab kelayotgan xorijiy davlatlarning hurmatli elchilarini va xalqaro tashkilotlar vakiilarini ham samimiy qutlayman. Barchamiz chin dildan ularning mamlakatlarini va xalqlariga tinchlik va farovonlik tilaymiz.

#### Qadrlri vatandoshlar!

Shu o'rinda ko'nglimdagidagi bir egez fikri siz, azizlarga aytishni joiz deb bilaman. Biz O'zbekistonda qanday qonun va qarorlarni qabul qilmaylik, qanday ishlotlarni hayotga joriy etmaylik, davlat rahbari sifatida mening ko'z o'ngimda avvalo munis onalarimiz, mehribon opa-singillarimiz siyomisi, ularning dardu tashvishlari turadi.

Siz, azizlarimning oila davrasida tinch-omon, sog'-salomat, farovon va baxtli turmush kechirishining, jamiyat hayotida faol ishtirok etishining uchun xizmat qilishni men o'zim uchun nafaqat asosiy vazifa, balki sharafli burch, deb bilaman. Chunki oila yatachchi, jamiyat ustuni bo'lgan onalarimiz, ayollarimiz hayotdan rozi bo'lsa, butun xalqimiz hayotdan rozi bo'ladи.

Xalq rozi bo'lsa, Yaratganimiz ham bizon rozi bo'ladи. Xabaringiz bor, respublika xotin-qizlar tashkiloti hozirgi vaqtida Oila va xotin-qizlar qo'mitasini sifatida yangicha mazmunda faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'mitaning vakolat va faoliyat doirasini kengaytirilib, uning tarkibiga bilimdon va yuqori malakali yangi kadrler jaib etildi. Junladan, biringchi marta eng quiy bo'g'inda – 9 ming 400 dan ziyyod mahallada ayollar muammolarini hal etishga ko'maklashadigan xotin-qizlar faoli lavozimlari joriy etildi. Bularning barchasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasini O'zbekiston ayollarining chinakam tayanchi va suyanchiga aylantirishga xizmat qiladi.

#### Muhtaram vatandoshlar!

Ma'lumki, turli sohalarda dastlabki muhim natijalarga erishib, yosholimizga namuna bo'layotgan iste'dodli qizlarimizni shu qutlug' bayram arafasida Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash yaxshi an'anamizga aylangan. Bugar Zulfiyayonimga munosib izdosib sifatida e'tirof etilgan yana 28 nafr oqila va iste'dodli qizlarimizga ana shu mukofotlarni topshiramiz.

Siz, aziz qizlarimni hayotiningizda ilk zafar bilan chin dildan tabriklab, barchangizga yangi-yangi yutuqlar tilayman. Bugungi xursandchilik kunda o'z sohasida ibratli natijalarga erishgan, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelayotgan hurmatli ayollarimizdan katta bir guruhi davlatimizning yuksak orden va medallariga sazovor bo'ldilar. Fursatdan foydalaniб, ularning barchasini samimiy tabriklayman.

Bugungi o'ta og'ir va murakkab zamonda biz o'z oldimizga ulkan vazifalarni qo'yamoqdamiz. Ularni bajarish albatta oson bo'lmaydi. Lekin, bu sharafli yo'lda bizga cheksiz kuch va madad beradigan mard va olijonlar xalqlarimiz, aziz opa-singillarimiz bor ekan, ko'zlagan ulug' maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Yangi O'zbekistonni barchamiz birlgilida bonyod etamiz! Sizlarga, butun mamlakatimiz ayollariga sihat-salomatlilik, oilaviy baxti, xonadonlarining fayzu baraka tilayman. Qutlug' bayramingiz muborak bo'lsin!



«Milliy tiklanish» demokratik partiysi barcha opa-singillarimizni 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan muborakbod etadi!

## Hazrati ayol...

Yil fasllari faqat to'rtta, ayolning esa ming bitta fasli bor. Uni butkul tushunib yetgan odam Yo'q bu dunyoda! Uni tomosha qilib zerikkan insон yo'q yer yuzida!

Unga ishi tushmagan kishi yo'q! Uni suymagan, u deb kuymagan erkak zoti yo'q. Uni yozmay kimni yozay, kimni ta'riflay. Ayolni tushunush o'zi bir ilm. Bu ilmga yetishganlar qancha ko'payسا, baxtli ayollar soni shuncha ko'payajakdir.

“Ayol” deb atalgan mo'jizaning hali tom ma'nodagi ta'rifi, yarashiqli bahosi topilgani yo'q. Olis sayyoralar o'rganildi, yetti qavat yerning siri oshkor bo'ldi, ammo ayol qalbidagi ochilmagan necha-necha qit'alar shundayligicha qolib bormoqda. Sokingina beshik tebratadi u. Nim ta'zim bilan xushbo'y saboday ohista va sharpasiz yoningizdan o'tib ketadi. Shikasta ovoz bilan sizdan hol so'raydi, uning etaklarining nim ovozi, mayin shildirashidan atrofingizda jannatiy havolar yaratadi.

Dunyodagi jami yaxlitlik va butunlik Ayol bilandir! O'rmalagan jonning bari ayolga yuzlanajak, onam deb, juftim deb, opam, singlim, momom, qizim deb undan jon olajak, nur, madad olajakdir! Ayol Allah yaratgan ne'matlarning sinoatlisi, mo'jisasidir. Ayol – kim o'zi?

Bu sinoatning poyoniga ayol ham yetolmas. Ayolsiz uy – tun. Ranglar yo'qoladi. Atrofingiz beshakl. Gullarning hidini tuyasizu o'zini ko'rmaytsiz. Feruza osmon yo'q.

Ayol – sehr. Barmoqlarini shunday yugurtirsa, keraksiz qiyqimlar chaman shakli tushgan yostiqqa, ko'rpa chaga aylanadi. Uyga bir kirib chiqsa, pardalargayu devorlarga, javonlargayu mehroblarga bahor yuqqanday, izlarida ifor ufurganday bo'ladi. Ayoli bor uyning dasturxonni kamtarona bo'lsa ham, mazasi totli.

Kulibgina turibdi, xotirjamgina turibdi deb bo'lmaydi ayolini.

Kulibgina turibdi, rozigina turibdi deb bo'lmaydi ayolni, uning ichiga o't tushsa xam, bag'ri qo'lga aylansa ham, zoxiri sokin ko'rinaraveradi, egilmaydigan qoyalarni ichiga yutib turaveradi...

Ayol lutfi, ayol muomalasi shohlarnida mot qilgan, olamshumul hayratlarga sabab bo'lgan.

Ayol – misli go'dak! Yolg'ondan yupatsangiz ishonadi.

Bir shirin gap bilan baxtiyor bo'ladi. Bola onasiz joudirab qolgani kabi, ayol o'z bolasiga, justiga, uyiga, oilasiga shunday mubtalo bo'lib yashaydi.

Beshikni va dunyoni tebratgan hazrati ayol, ayyoming muborak!



Mart –  
Xalqaro xotin-qizlar kuni

# FUQAROLARNING BIRON-BIR TAKLIF VA MULOHAZALARI E'TIBORDAN CHETDA QOLMADI



**Oliy Majlis  
Qonunchilik  
palatasidagi "Milliy  
tiklanish" demokratik  
partiyasi hamda  
O'zbekiston Liberal-  
demokratik partiyasi  
fraksiyalarining  
qo'shma yig'ilishida  
yangilanayotgan  
Konstitutsiya  
loyihasini  
takomillashtirish  
bo'yicha amalga  
oshirilgan ishlar  
muhibama qilindi.**

Ma'lumki, ikki yetakchi partiya fraksiyalarini tomonidan o'tgan yilning may oyida konstitutsiyaviy isloholari bo'yicha tashabbus ilgari surilgan edi. O'tgan vaqt ichida partiya faollari hududlarda elektorat vakkilari, saylovchilar bilan uchrashuv va muloqotlar o'tkazib, yurtdoshlarimizning fikr va mulohazalarini eshitishdi. Muhammalarda ta'kidlanishicha, umumxalq muhokamalarida kelib tushgan 220 mingdan ziyod takliflarning har to'rttadan bittasi loyihamdan joy oldi. Fuqarolarimiz bildirgan biror bir taklif e'tibordan chetda qolmadi.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirovning ta'kidlashicha, bu yerda gap Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish emas, yangi Konstitutsiya haqida ketmoqda. Chunki yangi Konstitutsiyaga 27 ta modda va 159 ta norma qo'shilayapti. Amalagi Konstitutsiya 65 foizga

o'zgarmoqda. Uning aytilishcha, partianing dasturiy maqsadlaridan kelib chiqib, asosiy Qonun loyihasida ko'plab takliflar aks etmoqda. Jumladan, 47-moddada maktabgacha ta'lif va tarbiya, umumiyo'rta ta'lif davlat nazoratidadir, degan norma kiritildi. Avvalgi Konstitutsiyaviy normada faqat maktab ishlari davlat nazoratida edi. Bu yosh avlodni 18 yoshgacha, ya'ni bog'cha va maktab davri davlatning kafolatlari nazoratida bo'lishiň anglatidi. 52-moddada o'qituvchining sha'ni va qadr-qimmatini, ularni ijtimoiy va moddiy farvonligini himoya qilish to'g'risida norma kiritilmoga. Bu juda to'g'ri norma, faqat maqsad va amal uyg'unligiga erishish uchun normani 47-moddaning maqsadiga uyg'unlashtirish, ya'ni "o'qituvchi" so'zini "tarbiyachi va o'qituvchilar" so'ziga o'zgartirib,

g'amxo'r munosabatni bog'cha tarbiyachilariga ham ko'rsatish kerak. Shuningdek, Konstitutsiya loyihasida inson va davlat o'trasida bartaraf etib bo'lmaydigan muammolar paydo bo'lganda, noaniqliklar yuzaga kelganda inson foydasiiga talqin etish, tarixiy, ma'naviy, madaniy va tabiyi merosimiz davlat muhofazasiga olinishi bilan bog'liq belgilanayotgan normalar ham partianing Saylovoldi dasturiga hamohangdir. Yig'ilishda Konstitutsiyaviy qonun loyihasi besh turdag'i, ya'ni lingistik, yuridik, gender-huquqiy, korrupsiya qarshi kurash hamda inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga muvoqiqligi bo'yicha ekspertizalaridan o'tkazilgani, shuningdek, loyihaning o'zbek tilidagi matni tahririni tayyorlash bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilgani ma'lum qilindi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasida normativ-huquqiy atamalar o'z mazmuniga muvofiq, yagona shaklda qo'llanilgan. Adabiy til qoidalari va normalari tabalabri hamda yuridik, texnik va boshqa maxsus qoidalargarda aniq roya qilingan. Loyihadagi normalar sodda va ravon aks ettirilgan. Uning sifati va darajasi jahon konstitutsiyaviy taraqqiyotining asosiy tendensiyalariga to'la mos keladi. Yig'ilishda yangilanayotgan Konstitutsiya loyihasidagi har bir modda yurdoshlarimiz ishtirokida muhibama qilngani loyiha belgilanayotgan yangi normalar siyosiy partiyalar fraksiyalar fikrlari bilan hamohang ekan ta'kidlandi. Yig'ilishda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

**Hamdan NIYOZOV,  
partiya Markaziy kengashi  
bo'lim boshlig'i**

HIMOYA ORDERI:

## FRAKSIYA TASHABBUSINI QO'LLAB-QUWATLAYMAN



**Dilfuza YUSUPOVA,  
xalq deputatlari  
Yunusobod tuman  
Kengashi deputati**

Dunyoda har uchinchi ayol o'z oilasi yoki boshqa shaxslar tomonidan jismoniy yoxud jinsiyo zo'ravonlikka uchraydi. Ya'ni, 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlarning qariyb 30 foizi ana shunday vaziyatda yashaydi.

Garchi bunday zo'ravonliklarga qarshi o'nlab, yuzlab xalqaro shartnomalar, rezolyutsiya, deklaratsiyasi va dasturlar qabul qilingan bo'lib, BMT tomonidan ularning ijrosi qat'iy nazorat qilinsa-da, ayolni taqirishlarni holatlari kamaymayapti. Ma'lumki, 1981-yilden beri 25-noyabr - "Zo'ravonlikka qarshi kurash kuni" sifatida nishonlanadi. Üning doirasida 187 mamlakatda "Gender zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar" kampaniyasi ham e'lon qilingan.

Ta'kidlash lozim, O'zbekiston Konstitutsiyasining 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", deya belgilab qo'yilgan. Bu shubhasiz mamlakatimizda ayollarning qozlanishi, qadrishanasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganiga dalolatdir. 2022 - 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha qabul qilingan milliy dastur ham ayollar haq-huquqini ta'minlash, ularning yashashi, ta'lim olishi, kash o'rganishi, ishlashi, dam olishi, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratishni ustuvor vazifaga aylantirdi. Tan olaylik: bugun ayollar xizmat qilayotgan tarmoqlarda ish unumdonligi va samarasid, eng asosiyisi, korrupsiya, poraxorlik, tanishbilishchilik kabi illatlardan uzoqlashish holati yuqori bo'lmoqda. Bundan quvonish kerak, albatta. O'zbekiston tarixida ilk bor parlamentda xotin-qizlar soni BMT

tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-oringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, olyi ta'lilda 40 foizga, tadbirkorlikda esa 35 foizga yetdi. Albatta, bunday natijalar mamlakatimizning xalqaro reytindardagi o'mini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Ammo shunga qaramay, gender tenglikni ta'minlash jarayoni yangicha yondashuv va qarashlarni talab qilmoqda. Xotin-qizlarga nisbatan kuch ishlashit, ayniqsa, oladagi zo'ravonliklarga butunlay barham berish hukumatimizning ham, jamiyatning ham eng ustuvor vazifasiga aylandi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklarning oldini olishga qaratilgan Himoya orderi ham bu borada samarali ishlardan biri bo'ldi, albatta. Mahallya Kengash deputati sifatida bu mexanizmdan foydalanyapmiz ham. To'g'ri, avvaliga ko'pchilik undan hech kim foydalannama kerak deb o'ylagan edi. Sababi, o'zbek ayolining aksariyati oilavly muammolarini uyidan tashqariga chiqarmaydi. Ayollarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular bilan manzilli ishlash, dardu tashvishini ochiq-oydin gaplashish uchun alohida ayol inspektor lavozimi tashkil etilgani esa, bu yo'nalishda hali ko'p ishlar qilinishini ko'rsatdi.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qarataks, 2021-yilda qariyb 40 ming, 2022-yilning 10 oyida 41 ming 600 nafer xotin-qizlarga Himoya orderi berilganini ko'ramiz. Uning 84 foizi oilda tazyiq va zo'ravonlik sodir etilgani, 65 foizi esa eri tomonidan ayliga tazyiq o'tkazganligi sababli berilgan.

Ma'lumki, Himoya orderi jabranuvchiga murojaat qilgan kunidan boshlab 24 soat ichida huquq-tartibot organlari tomonidan beriladi va 30 kungacha amal qiladi. Ammo afsuski, Himoya orderi ham, amalagi qonunchilik normalari ham xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni butunlay barham berishga yordam bermayapti. Xo'sh, unda nima qilish kerak? Balki Himoya orderining amal qilish muddatini cho'zish kerakdir, javobgarlik choralarini yanada keskinlashtirish lozimdir. Keyingi paytlarda bu haqa juda ko'p gapirilmoga...


Yaqinda partiyamizning fraksiya yig'ilishida masofadan qatnashdim. Deputatlarimiz "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini muhibama qildilar.

Qonun loyihasi bilan aynan xotin-qizlar va bolalarining huquqlariga daxil qiluvchi jinoj qilmishlar uchun sanksiyalar kuchaytirilayotgani, ayniqsa, himoya orderi bilan bog'liq o'zgarish kiritilayotgani e'tiborga molik. Endi Himoya orderining amal qilish muddati jabranuvchining arizasiga ko'ra sud tomonidan bir yilgacha uzaytirilishi mumkin ekan. Albatta, ko'rilyotgan bunday choralar samara berishiga umid qilamiz. Lekin fikrimcha, bu illatga qarshi kurashishning ta'limgartibiyasini mustahkamash, xalqimizga oila bilan bog'liq milliy va diniy qadriyatlarimizni ko'proq singdirish, bu borada mahallaga, jamiyatga o'rnatko bo'layotgan yoshi ulug' otonalorimiz maslahatlari qulqo tutishdir.

Tanlovda faqat  
o'qituvchilargina unsiz  
yig'lardilar, xolos. Unsiz...  
Bolalar esa kattalar bo'lib  
mag'lubiyatni munosib qabul  
qildilar...

"Aql" – "jilov", "May" –  
sharob, majoziy ma'noda  
ishq, Allohga yoki yorga,  
"Nihon" – yashirin,  
"Mujgon" – "kiprik"...  
Navoiy g'azallaridagi  
har bir so'zning  
lug'avyi ma'nosini  
tarjima qilayotgan  
bolalarni go'yo o'z  
ustoziga mahliyo  
bo'lgan birinchisi  
sinf o'quvchisidek  
kuzataman. Tan  
olaman, Navoiy  
ijodidagi har bir  
bayt mag'zini  
chaqib, uni  
mahorat bilan  
tushuntirishda  
raqobat-  
lashayotgan  
bolalar bu gal  
hayratimga  
sabab  
bo'ldilar.

Ularni  
kuzatyapmanu,  
yengil-yelpi  
musiqa yoki  
qo'shiqqa  
o'rgangan  
auditoriya  
nega bugun jim,  
odatda mumtoz  
musiqa namunalari  
yangraganida qarsak  
chalgan tomoshabin  
nega bugun sukutda,  
hayratda? Hozirgina  
osmonga sapchiyotgan  
o'smirlarning vujudi  
qulooqqa aylangandek  
go'yo... Nega jarayonni  
tasvirga tushirayotgan  
ijodiy guruh a'zolari  
loaqla chekish uchun  
tanaffus so'ramayaptilar?  
Tushlik vaqtgi o'tganiga ham  
ikki soatdan oshdi, hamma  
jim? Hakamlar bolalarni  
qiyindan qiyin savollarga  
ko'mib tashlasa ham  
o'quvchilar "tegirmondan  
butun chiqishyapti".  
Beixtiyor o'z-o'zinga savol  
beraman: men 12 yoshimda  
Navoiyning "Orazin"idan  
boshqo yana qaysi g'azalini  
bilardim?! Nari borsa  
besh yoki o'nta. Boshimni  
ko'tarib atrofga qarayman:  
go'yo shu savolni zaldagi  
tomoshabinlar, tanish-u  
notanishlar muhokama  
qilayotgandek.



# AVOIY FENOMENI yoki Navoiy "layk"ka muhtoj emas

Mana bu lo'ppi yuzli  
qizaloq qoraqalpog'istonlik  
Muhyay. U 40 nafar sho'r  
she'rlarini engilz va rus  
tilida juda go'zal tarzda  
o'qidi. Andijonlik Nozanin  
50 ta, tanlovning yagona  
o'g'il bolalarni ishtiroychisi,  
mo'yablari sabza urayotgan  
jizzaxlik qoramag'iz yigitcha  
Oybek esa 60 ta, Navoiy  
she'ri bitilgan kashtani  
kechasi bilan tibki ko'zlarini  
charchagan, lekin uning  
tahlilini matoga ko'chirgan  
farg'onaliq Hosiyat 70  
ta, o'zini Guliman deb  
tasavvur etgan va bunga  
hammani ishontira olgan  
navoiylik Marjona 80 ta,  
ko'zlarini qizimning ko'zlariga  
o'xshash buxorolik Sitoraxon  
esa 100 ta g'azal yodlabdi!  
Eng qizig'i, bu tanlovda  
biri-biridan o'zaman degan  
raqiblarni ko'rmadim.  
Yana bir holat: loaqla biron  
o'qituvchi yo'quvchi "Men  
zo'rman, mening bolam zo'r",  
deb da'vo qilmadi. Javob  
bitta "Zo'rlar ko'p edi!". Ko'p  
o'yildim... 10 yilden beri  
yuzlab tanlovlar o'tkazgan  
bo'lsam, aksariyatida yig'i-  
sig'idan bag'rim ezilardi.  
Shuning uchun hayt a'zosi  
bo'lishdan cho'chiyman.  
Chunki onaman-da. Onaga  
esa o'z bolasi aybi bo'lsa  
ham hamisha "oppoq" va  
"yumshoq".

Tanlovda faqat  
o'qituvchilargina unsiz  
yig'lardilar, xolos. Unsiz...  
Bolalar esa kattalar bo'lib  
mag'lubiyatni munosib  
qabul qildilar. Iroqni do'ppisi  
yarashgan Toshkent  
viloyatidan kelgan Charos  
jiqqa yoshga to'lgan  
ko'zlarini arang yashirib,  
adolatlilik hakamga "Iltimos,  
hech bo'limsasa daftaramiga  
dasxast qo'yib bering" deb  
ko'p o'qilgan, yozilgan va  
yoddanganidan titilib ketgan  
lug'at daftarini tutqazdi.  
Betaraf hakamlar shu joyda  
biroz yumshashdi... Axir,  
ular Navoiyshunos olimlarni  
emas, balki oddiygina  
muktob o'quvchisini imtiyon  
qilayotganlarini tushunib  
qoldilar.

"Qani edi sizdag'i Navoiyni  
his etish qobiliyati bugun  
o'zini olim sanagan ayrim  
"Navoiyshunos" larga  
ko'chsasi edi", - degan tilak  
bitilgan lug'atni hay'at  
raisi ishtiroychiga qaytarib  
berdi. Shu tariqa bu tanlov  
hayotimda to'palonsiz o'tgan  
birinchisi tanlov bo'lib qoldi.  
Chunki Navoiyning go'zal  
fazilati, madaniyati, ma'rifati  
kitoblardan bolalarning  
fitratiga ko'chgan edi go'yo...  
Tanlovning birinchi kuni shu  
tariqa yakunlandi.  
Tanlovning 2 kunida  
700 kishi orasidan 1, 2,  
3 - o'rinalarni imtiyondan  
o'tkazish vazifasi qoldi.  
Aytishlaricha, unga albatta,  
nomlari ro'yxtarlarning  
eng avvalida yoziladigan  
kattalarining ham kelishi  
kutilayotgan ekan...  
Navoiy shahridagi  
muhtasham "Farhod" saroyi...  
Zal to'la odam. 3 nafar  
g'olib birin-ketin sahnaga  
chiqli. Muhim savollar  
bilan "o'qlangan" hakamlar  
yopposiga 3 ta ishtiroychini  
imtiyondan o'tkaza  
boshladilar. Har bir savolga  
burro-burro, o'ylab, hayajon  
bilan javob berayotgan  
yoshlarni ko'rib rahbariyat  
hayt a'zolaringa yuzlandi:  
"Yetar, bu bolalarku, bu  
tanlov, institut imtiyondan  
emaslik!" degan e'tirozlariga  
qaramasdan tanlov  
shartlarining barchasidan  
Nizom talabalariga  
muvoqiq o'tib chiqlidi.  
Mehmonlarining hayrati,  
hayajoni, hatto qo'llab-  
quvvatlovchilarning so'zlarini,  
hay'atga zarracha ham  
ta'sir qilmasdi. Hammasi  
qo'zodagi shartlarga asosan  
adolatlilik davom ettirildi.  
Ochig'i, mingta ishi bor  
viloyat hokimining, siyosiy  
kuch yetakchisining otadek  
mehrbiyolik, kuyunchaklik  
bilan bolalar uchun jon  
kuydirganini ko'rish har  
qanday kishini xursand  
qilarkan. Katta lavozimdag'i  
odamlarning yuragida katta  
mehr borligini shu pallada  
yana bir bor his etgandimi.  
Shu bilan 1, 2, 3-o'rinalar

e'lon qilindi va mukofotlar  
o'z egalariga gulduros va  
davomli qarsaklar ostida  
topshirildi. Shu o'rinda  
yoshlarning zehni va  
qobiliyatidan zavqlangan  
Navoiy viloyati hokimi  
to'iqinlanib, Prezident  
sov'g'asi sifatida navoiylik  
g'olib ishtiroychiga 50  
million so'mlik mukofot  
pulini va'da qildi va ertasi  
kunyiqoq Navbahor tumanidan  
g'olib ishtiroychining  
maktabida uni o'z qo'li  
bilan topshirganini alohida  
ta'kidlashni istardim.  
Eng muhimi, mazkur  
tanlovda yoshlar o'z  
o'qituvchilarini bilan birga  
taqdirlandilar. Tadbirni  
olib borgan boshlovchilar  
kutilmaganda o'qituvchilarni  
bir qadam bolalardan  
oldinga chiqishlarini taklif  
qilib qoldi. Beixtiyor  
"Tinchlikmikan?" degan  
o'ydan hushyor tortdim.  
Shunda sodda va samimiy  
ustozlar mehnati e'tirof  
etilib, ular sha'niga davomli  
qarsaklar yangradi. Va, bu  
e'tirof uzoq davom etdi.  
Navbat tanlov kashfiyotiga  
yetib keldi. Surxonaryoning  
Sariosiyo tumanida  
yashovchi 5-sinf o'quvchisi  
Shahzoda Navoiyning 457  
ta g'azali hamda "Lison-un-  
tay" dostonini yaxlit yoddan  
bilarken.

Navoiy devoniadagi duch  
kelgan sahilafardagi  
g'azallarning birinchi misrasi  
o'qib eshitirilmasdan  
qahramonimiz ularni dona-  
dona qilib davom ettirib  
tomoshabinni hayratga solardi.  
Ko'p o'tmay barcha  
shubhalarqa barham beriidi.  
So'ng sahnada nafaqat bitta  
tanlov qahramoni, balki uni  
voyaga yetkazgan navoiyxon  
oila ham aniqlandi.  
"Qanday qilib shunday  
natijaga erishdingiz?" degan  
savolga onaneng javobi juda  
oddiy bo'ldi: "Besikhdan  
boshladi..." Betaraf  
tarasfdorlar (hay'atning)  
yuzida ilk bor tabbassum  
ko'rindi. Nazarimda bu  
tabbassum — asrlar osha  
vorislardan rozi Navoiyning

nuroniy, mammun qiyofasini  
eslatlar edi.  
Ibrohim Xaqqul aytganidek,  
Navoiyning g'oyasini bugun  
turlu zamonaliv shakkallarda  
yetkazish taraddudini  
ko'raylik! Axir, hamma  
dardga davo o'zimizda bor!  
O'zimiz bemor, o'zimiz  
shifokor! Qolaversa,  
bugungi siyosatning  
mag'zini tushintirishda  
ham Navoiyning  
beminnat xizmatidan  
foydalanmog'imiz kerak.  
Zero, "Odamli ersang  
demagil odamiy, Onikim,  
yo'q xalq g'amidin g'ami"  
degan sho'r baytining  
o'ziyoq bugungi davr talabi  
va siyosatini, islohotlarning  
mazmunini yoshlarga  
tushuntirishda eng maqbul  
yo'l-ku! Bu ayni paytda  
yurtboshimiz tonomidan  
bot-bot kuyunib gapirilgan  
"Norozini rozi qilish bizning  
ish" yoki bugun "Xalq  
dardi bilan yashash, xalqa  
xizmat qilish — eng asosiy  
vazifamiz", - degan xalqchil  
gaplarining zamonaliv  
talqini emasmi?  
Shu o'rinda "O'zbekkino"  
milliy agentligi, "Madaniyat  
va ma'rifat" kanali, daryo.uz,  
xabar.uz bu jarayonni  
tasvirlarga muharraganini  
aytish joiz. Bu esa  
ijodkorlarning zamonalar  
kelib, albatta, tanlovning xalq  
tanloviga va xalq mulkiga  
aylanishiqa qo'shilgan  
munosib hissalar bo'lsa,  
ne ajab. O'zingiga ravo  
ko'rganni birovgaga ravo ko'r  
deydi domo xalqimiz. Ravo  
ko'rdim ushbularni sizga  
yozishni. "Layk" kerakmas,  
Navoiy "layk"ga muhtoj  
emas! Aksincha, biuzunga  
muhtojimiz. U bizning  
ma'naviy bayrog'imiz...  
Uni o'zimizga kerakli  
qilaylik, toki, kimgadir kerak  
bo'lib yashashimiz uchun.  
Ha, aytmoqchi, Siz nechta  
g'azalni yoddan bilasiz?  
Uning ma'nosinichi?

Firuza  
MUHAMEDJANOVA,  
partiya Markaziy kengashi  
raisi o'rinosbosari

# ZO'RAVONLARGA SHAFAQAT YO'Q

- ✓ Chet elga qochgan xorijliklar aliment sabab endi kelmaydi
- ✓ O'g'il bolalar ham zo'ravonlikka uchrayaptimi?

2021

-yili IT-park rezidentlari tomonidan 5 trillion so'mlik xizmatlar ko'rsatgani, eng asosiyisi, 140 million dollarlik xizmatlar eksport qilingani aytildi. Mavjud 715 ta davlat xizmatidan 370 tasi raqamli platformaga o'tkazilgan bo'lib, ular faoliyatidan 12 million kishi foydalangan. Raqamlashtirish natijasida 70 dan ortiq turdag'i ma'lumot va hujjatlarni aholidan talab qilish bekor qilingan.

Lekin ana shunday natijalarga qaramay vazirliklarning 5 mingta funksiyasidan faqat 30 foizi raqamlashgan, xolos. Aholi eng ko'p murojaat qildigan ichki ishlar, adliya, sog'liqni saqlash sohalarida o'nlab xizmatlar elektron shaklga o'tkazilmagan. Axborot texnologiyalari sohasida mahsulotning ham, eksportning ham asosiy qismi Toshkent shahriga to'g'ri kelyapti.

"Milliy tiklanish" demokratik partiysi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishi avvalida Alisher Qodirov Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-fevral kuni soha va hududlarda raqamlashtirish jarayonini jadallashtrish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi tafsilotlariga to'xtalar ekan, yuqoridaqide kamchiliklarni bartaraf etish uchun ustuvor vazifalar belgilanganini ta'kidladi.

Yig'ilishda mavjud muammolar ochiq aytilib, ko'zbo'yamchilik bilan natijaga erishib bo'lmassisiga ta'kidlandi. Bunda Elektr energiyasi iste'molini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimi (ASKUE) misol sifatida keltirildi. Ushbu tizimning 160 ga yaqin boshqaruv funksiyalari bo'lsa, biz katta valyuta hisobiga keltirilgan tizimning atigi ikkitasidan foydalanyapmiz, xolos.

Eng achinarisi, hali tuman darajasidagi mutaxassislar ASKUE nimaligini tushinib yetganlari yo'q. Bundan unumli foydalangan xakerlar esa, tizimni buzib kirib, kimlarnidir foydasini uchun bilgan ishni qilyapti. Natijada ayrim sohalarda qo'shib yozish, o'zlashtirish holatlari kuchayamoqda. Masalan, bir xil oilalar oyiga 1000 kilovatgacha elektr energiya ishlatgani qayd etilgan. Lekin tekshirib ko'rliganda bu oilalar ko'pi bilan 200-300 kilovatgacha energiya ishlatgan, xolos. Aslida ASKUE bunday xatoliklarni ham aniqlab, ta'nil qilish imkoniyatiga ega. Lekin kimlardir o'z mansaati yo'lida bu imkoniyatlardan foydalamanmayapti.

— Yig'ilishda Davlat rahbari tomonidan sifatiga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotgan, sifat bo'lmasa hech qachon natija bo'lmaydi, degan konsespiya ilgari surildi. Afsus bilan e'tirof etildiki, bugun raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun yetarli

darajada mutaxassislar ham tayyorlanmayapti, ya'ni maktablarda, oliy ta'llim muassasalarida bu boradagi ishlar sust ekani tanqid qilindi, — dedi fraksiya rahbari.

Faksiya yig'ilishi da Prezidentning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi yakunlari haqida ham fikr-mulohazalar bildirilib, uning samarali va mazmunli o'tgani ta'kidlandi.

Parlament, deputatlar va partiylar faoliyatidan kelib chiqib, asosiy xulosalar shunday bo'ldiki, bugungi kundagi qonunchilik realliklarga uyg'un bo'lishi, qonunlarimiz ayni o'zgarishlarni to'la qamrab olishi lozim. Endi hukumatni faqat qo'l ko'tarib saylab qo'yish bilan ish bitmaydi. Deputatlar ham, partiylar ham o'zi saylagan hukumatining salbiy natijalari uchun kerak bo'lsa xalq oldida javob beradi.

Shundan so'ng deputatlar kun tartibiga kiritilgan qonun loyihalarini muhokama qildilar. Jumladan, "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishchonchi himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilinib, birinchi o'qishda tasdiqlandi.

Muhokamalar chog'i ta'kidlanganidek, bugungi kunda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishchonchi himoya qilish borasida huquqni qo'llash amaliyotida ko'plab muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, xotin-qizlar va bolalar huquqlariga daxl qiluvchi jinoiy qilishlar uchun mutanosib sanksiyalar, shaxs hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi, sha'ni va nomusini kamitsutuvchi ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik

belgilanmagan. Qonunchilikda ayollarni ish va o'qish joyida tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha kafofat mavjud emas.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi order muddati (30 kun) xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini yetarli darajada himoya qilish imkonini bermayapti. Aliment to'lolgagan shaxslarga jazo sifatida jarima tayinlanishi esa yanada ko'proq moddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaryapti. Shundan kelib chiqib, ushbu qonun loyihasi tayyorlandi va bu bilan amaldagi 12 ta qonuna o'zgartish va qo'shimchalar yana kuchaytrilmoga.

Adliya vaziri o'rinosbosari Alisher Karimov bu haqida ma'lumot berib, Jinoyat kodeksida ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash bilan bog'liq sanksiyasi kuchaytrilayotganini aytdi. Endi bunday jinoyatlar uchun BHMning 200 baravarigacha (amalda 50 baravar) jarima yoki 5 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilinadi.

Ma'lumki, bunday turdag'i jinoyatlar bilan jabrlanuvchilar qo'rquv oqibatida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga deyarli murojaat qilmaydilar. Buning ibotini 2016-yilda boryo'g'i 4 nafar, 2017-yilda — 6 nafar, 2018-yilda — 5 nafar shaxsiga nisbatan ish ko'rligani, 2019-yilda esa bironta ish qayd etilmagandan ham ko'rish mumkin. Lekin amalda hayotda qiz farzand tug'ilishi kutilayotgan oilalarda ayl kishini abort qilishga majburlash holatlari ko'p uchrayapti. Rasmiy nikoldan o'tmag'an oilalarda "istalmagan homiladan" qutulish uchun ayl kishini abort qilishga majburlash, aks holda uni tashlab ketish bilan qo'rqitish holatlari kuzatilmoqda.

Bunday turdag'i jinoyatlar uchun Germaniya, Turkiya, Ispaniya va Litvada ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda utilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ham bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Xususan, voyaga yetmagan, mehnatga layoqatsiz shaxs yoki ota-onanini moddiy ta'minlashdan bo'yin tovshash bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etganlarni haq to'lanadigan



jamoat ishlariiga majburiy jaib etish bo'yicha yangi jazo turi joriy qilinyapti. Ya'ni, bunday holatda 280 soatgacha bo'lgan muddatga jazo tayinlanadi. Berilgan ish haqining 50 foizi esa alimgenta, ota-ona yoki mehnatga layoqatsiz shaxs ta'minotiga yuboriladi.

Shuningdek, aliment to'lash majburiyatiga ega bo'lgan chet el fuqarolari, fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborilmasligiga oid qoida ham belgilanmoqda. O'tgan yili aliment to'lash majburiyatiga ega bo'lgan 262 nafar chet el fuqarosi mamlakatimizdan chiqib ketgan.

"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish bo'tg'risida"gi qonunning himoya orderi bilan bog'liq moddalarini ham o'zgaryapti. Ma'lumki, himoya orderi tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlarga ichki ishlar organlari tomonidan 30 kungacha berilar edi. Endi agar xavf hali bartaraf etilmagan bo'lsa, himoya orderining amal qilish muddati tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko'ra, sud tomonidan ko'pi bilan bir yilgache uzaytirilishi mumkin.

Oliy Majlis Qonunchilik palatalasi Spikerining o'rinosbasi, fraksiya a'zosi Odiljon Tojiyev ushbu qonun loyihasiga munosabat bildirib, so'nggi yillarda voyaga yetmaganlarga nisabatan zo'ravonliklari ko'paygan, bundan butun jamoatchilik darg'azab bo'layotgani, shundan so'ng bunday jinoyatlarini sodir etganlarga nisbatan jazo choralarini yanada kuchaytrishga ehtiyoj tug'ilganini ta'kidladi. Davron Aripop ham loyihami ma'qulladi, lekin mas'ul idoralarga ushbu o'zgarishlar bo'yicha jo'natilgan ayrim takliflar inobatga olinmaganini aytdi va takliflarini yana bir bor eslabtir o'tdi. Abumalik Akramov ham ayrim o'zgarishlarga e'tiroz bildirib, o'z takliflarini o'rtaq tashladi.

Deputatlar ushbu qonun loyihasi bo'yicha ko'plab takliflar borilgini inobatga olib, fraksiyada maxsus guruh tuzishga kelishib oldilar. Guruhga fraksiyaning takliflarni umumlashtirish, loyihami ikkinchi o'qishga qadar yanada takomillashtirish vazifasi yuklatildi.

Ravshan MAHMUDOV,  
"Milliy tiklanish"  
muxbir

# 1 SAVOLGA 14 JAVOB

MJ

7

Chorshanba  
8-mart, 2023-yil  
№8 (1196)

NIGOH

— E'tibor va hurmat,  
eng muhimmi,  
muvaffaqiyat va  
bugungidek martabaga  
erishishingizga nima  
sabab bo'lgan?



Sadoqat SAFOYEVA,  
Toshkent shahar sudi sudyasi, yuridik  
fanlar nomzodi:

— Har bir insonning muvaffaqiyat sari  
bosib o'tgan yoki o'tayotgan yo'li bor.  
Albatta, har qanday muvaffaqiyat avvalo ilm  
o'rganishni, o'z ustida muntazam ishlashni  
talab etadi. Mening bugungi kunga qadar  
erishgan yutuqlarim, muvaffaqiyatlarim ortida  
eng avvalo rahmatli, mehribon ota-onamning  
ta'lim-tarbiyalarini, o'gitlari, bolaligimdan kitobga  
mehr uyg'otganliklari, hayot yo'llarida qoqilmasdan  
o'z yo'limni topishim uchun qilgan xizmatlari,  
mashaqqatlari, ayni paytda ibratli hayotlari turibdi. Shu  
bilan birlgilikda bog'chadan tortib, maktab, universitet,  
qolaversa, o'zim sevgan kasbim sud-huquq sohasidagi barcha  
ustozlarimning bergen ilmlari, pand-nasihatlari ham erishgan  
yutuqlarimning asosiy omili deb bilaman.

Bugungi bahoriy bayram kunlari barcha ustozlarimni  
qolaversa, mamlakatimiz sud korpusida erkaklar bilan  
teng faoliyat yuritib, adolat yo'lida shijoati, jasorati  
va kerak bo'lganda, qat'iyati bilan namuna bo'lib  
kelayotgan, imli, aqlo zakovati bilan odil qarorlar  
chiqarib, mamlakat sud tizimi nufuzini, shu  
bilan birlgilikda o'zining ayollik sha'ni, qadr-qimmatini saqlab faoliyat yuritib kelayotgan  
barcha aylor sudyalarimizni, sud xodimalarini  
muborakbod etaman!

Gulnora MAHMUDOVA,  
"Tadbirkor ayol" xalqaro ishbilarmon  
ayollar assotsiatsiyasi raisi:

— Ayollarning orzu va maqsadlariga  
erishishlari uchun juda ko'p omillar sabab  
bo'ladi. To'siqlarga qaramay, maqsad sari  
intilish kerak, muomala, farosat, joziba ko'p  
eshiklarni ochadi, deb uylayman. Sabablar  
ko'p aslida, lekin asosiyisini aytib o'tmoqchiman:

Avvalo, ziyoili-shifokorlar oilasida tug'ilib  
o'sganim, rahmatli dadamning halollik, bilm olish,  
intilish to'g'risidagi o'gitlari va menga bo'lgan ishonchlari  
meni hamisha to'g'ri yo'lg'a boshlagan. Ikkinchidan, barcha  
erishgan yutuqlarim o'zimga bo'lgan talabchanligim ham sabab  
deb o'yayman. Uchinchidan, har bir muvaffaqiyatim meni to'xtatmaydi, aksincha, kattaroq  
muvaffaqiyatga chorlaydi. Bu menga kuch beradi.

Muhtarama omaxonlar, opa-singillar, dilbar qizlarimizni go'zallik bayrami 8-mart — Xalqaro  
xotin-qizlar kuni bilan "Tadbirkor ayol" xalqaro ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi nomidan  
samimiy muborakbod etaman!



Sara NOSHADI,  
Yuneskoning O'zbekistonligi vakili:

— Har bir xotin-qizning muvaffaqiyatga erishishiga asosiy  
sabab, avvalo, uning oilasidagi ilm olishga bo'lgan intilish va  
oila a'zolarining uni qo'llab-quvvatlashlari, qolaversa, o'z ishtiyoqi  
va iqtidori deb bilaman. Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati  
bilan teng huquqlar uchun kurashayotgan barcha O'zbekiston  
xotin-qizlarini chin yurakdan tabriklayman va ularni qo'llab-  
quvvatlayman. Ayollarning jamiyatimiz taraqqiyotida tutgan o'rni  
beqiyos ekanini ta'kidlar ekanman, yurt ravnaqiga ulkan hissa  
qo'shgan bilim va fidoyiligidagini alohida e'tirof etib o'tmoqchiman.  
Ayollar asrlar davomida teng huquqlilik uchun kurash olib bordilar  
va bu borada sezilarli yutuqlarga erishishdi. Shunday bo'sada, hali  
ko'p ishlarni amalga oshirishimiz lozim. O'tgan davr mobaynida  
O'zbekiston ayollarini va qizlarining matonatiga qoyil qolganimni  
shaxsan e'tirof etmoqchiman. Qiyingchiliklar va to'siqlalar oldida  
ko'rsatgan qat'iyat va jasoratingiz meni chindan ham ruhlantiradi.

Teng huquqlar uchun kurashdagi fidoyiligidiz va sadoqatingiz,  
shubhasiz, ijobjiy natijalar berishiga ishonaman. Men sizlarni doim  
oldinga intilishga va to'siqlardan qo'rqmaslikka chaqiraman.

Bilingki, mehnatingiz va matonatingiz hech qachon e'tibordan  
chetda qolmaydi va, albatta qadrlanadi.

O'z yog'duyingiz bilan porlab, kelajak avlodlarga yorug' yo'il  
ko'rsatishda davom etavering!



Feruza ESHMATOVA,  
Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman):

— O'ylashimcha, inson qanday lavozimda ishlashi, obro'-  
e'tibori, martabasi qay darajada bo'lishidan qat'iy nazar  
o'zligini yo'qotmasligi, asli kabi qolishi kerak. Ishiga  
vijdonan yondashish va o'ziga nisbatan talabchan bo'lish  
kishishni doim izlanishga, o'rganishga hamda yangilik  
izlashga undaydi. Albatta, mukammallikning  
chergarasi yo'q, shu tufayli doim nimanidir yaxshilash  
va takomillashtirish mumkin. Rahbar aylol qay  
darajada bo'lishidan qat'iy nazar muntazam o'z  
ustida ishlashi kerak. Ayollar muvaffaqiyatining  
siri ham shunda deb o'yayman.

Kamatlarlik va samimiyatini qadrlayman. Jamoa  
va xodimlar bilan bir bo'lib ishlashni afzal  
ko'raman. Harakatchan, shijoatli va fidoyilik  
bilan ishlaydigani xodimlarni vaqtqi-vaqtli bilan  
rag'batlanirish, uning xizmatlarini e'tirof qilish  
ham ish samadorligini oshishini ta'minlaydi.  
Chunki, ishga xursand bo'lib, yaxshi kayfiyatda  
kelgan xodim, kun bo'y i yangi tashabbus va g'oyalar  
haqida o'yaydi. "Men doim kimda qanday taklif  
bor?" deb so'rayman.

Ombudsman sifatida ko'plab fuqarolar murojaatlarini  
eshitaman, aholi orasida hal etilishi kerak bo'lgan masalalar  
bilan to'qnashaman. Ishni esa masalalarga tizimli ravishda  
yechim izlashdan boshlayman. Muammo haqida hamma jar solishi  
mumkin, lekin unga yechim topishga hamma ham qodir bo'lmaydi.  
Jamiyatimizdag'i katta muammolardan biri ham shu aslida.

Bugungi sana munosabati bilan barcha o'zbekistonlik, qolaversa,  
dunyo ayollarini chin yurakdan tabriklayman. Xonardonlaridan  
fayz, qui-baraka arimasin!



Anora HAYDAROVA,  
partiya Markaziy kengash  
yetakchi mutaxassisi

**Inson tabiat qiziqi.**  
Ba'zan u muhim  
ishlari turib,  
mayda-chuyda  
narsalar bilan  
ovora bo'ladi,  
atrofidagilar  
bilan bahslashib,  
oltinga teng  
vaqtini behudaga  
sarflaydi. Bordi-  
yu, munozarada  
yutqazib qo'sya,  
qarshi tonnioni  
ayblaydi, hatto  
uni dinsizga  
chiqarishi ham  
hech gap emas.  
Afsuski, keyingi  
paytlarda bunday  
murosasizliklarga  
ko'p uchrabayapmiz.

Ayniqsa, 8-mart masalasida. "Har bahorda shu bo'lar takror" deganlariday, ushbu sanqa yaqinlashishi bilan "xotin-qizlar kunini alohida bayram sifatida nishonlasa bo'ladimi, yoki shartmasmi" qabilidagi muhokamalar ijtimoiy tarmoqlarda bosh mavzuga aylanadi. Tabiiyki, ming xil fikr, ming xil qarash... Aslida, hech o'ylab ko'rganmisiz, validamiz yoki opasingillarimizning ko'ngillarini olish uchun biror sana belgilangan bo'lishi shartmi? Lekin muhtarama ayolni e'zozlash, unga hurmat ko'rsatish - dinimiz amri, Parvardigori olamming farmoni, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning sunnatlarini ekan, nega endi xotin-qizlarning bir yilda bir bor alohida e'zoz, muhabbat va chtiromga loyiq ko'riliши muhokama qilinishi kerak! Tarixning guvohlik berishicha, 8-mart birlinchini marta 1908-yil Amerika Qo'shma Shtatlari bayram qilingan. 1909-yildan 1913-yilgacha, fevral oyining oxirgi yakshanbasida nishonlangan. Dastlab, bayramning qaysi kuni nishonlanishi borasida ko'p chalkashliklar bo'lgan. 1911-yildan Xalqaro xotin-qizlar kuni Germaniya, Avstriya, Duniya va Shveysariyada 19-martda nishonlangan. Keyinchalik 12-may sanasida, 1914-yildan boshlab esa 8-mart bayram sifatida belgilangan. Bu kun Angola,

Gvineya, Kambodja, Kitoy, Kongo, Laos, Makedoniya, Nepal, Janubiy Koreya va Uganda davlatlarida dam olish kuni deb e'lon qilingan va shu daqiqadan boshlab har yili 8-mart - Xalqaro ayollar kuni sifatida keng nishonlana boshlangan. BMT Bosh assambleyasi o'zining 1977-yildagi rezolyutsiyasi bilan barcha davlatlarga o'zlarining an'ana va odatlariga muvofiq istalgan sanani BMTning ayollar huquqlari uchun kurash va xalqaro tinchlik kuni deb e'lon qilishni taklif etgan. O'sha davrdan buyon har yili BMTda 8-mart kuni doirasida ayollar huquqlari uchun kurash va xalqaro tinchlik kuniga bag'ishlangan tadbirlar tashkil etiladi. Ambo bu harakat ayrimlar ta'kidlayotganidek, XIX asrning ikkinchi yarmida AQSHning Chikogo shahrida paydo bo'lganligi, unda foishalar ko'chalarga haq-huquqlarini talab qilib chiqqanligi haqidagi ma'lumotlarning asosli manbasi yo'q. Bu xususida gap ketganda Yevropadagi kommunistik harakatni xalq ko'ziga yomon ko'rsatish orqali yo'qqa chiqarishga qaratilgan harakatlarning mantiqiy bo'lagi emasmi, degan bir savol tug'iladi? Shuningdek, bu masalaga oid asossiz aylovlar yoki isbot talab etiladigan vajlar borligini ham unutmasislik lozim. Hayratlanarlisi, ushbu harakatlar AQSHdan Yevropaga osongina ko'chib o'tgan. Boz ustiga

ayolning sa'y-harakati sabab Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1975-yil - Xalqaro ayollar yili deb e'lon qilingan va shu daqiqadan boshlab har yili 8-mart - Xalqaro ayollar kuni sifatida keng nishonlana boshlangan. BMT Bosh assambleyasi o'zining 1977-yildagi rezolyutsiyasi bilan barcha davlatlarga o'zlarining an'ana va odatlariga muvofiq istalgan sanani BMTning ayollar huquqlari uchun kurash va xalqaro tinchlik kuni deb e'lon qilishni taklif etgan. O'sha davrdan buyon har yili BMTda 8-mart kuni doirasida ayollar huquqlari uchun kurash va xalqaro tinchlik kuniga bag'ishlangan tadbirlar tashkil etiladi. Ambo bu harakat ayrimlar ta'kidlayotganidek, XIX asrning ikkinchi yarmida AQSHning Chikogo shahrida paydo bo'lganligi, unda foishalar ko'chalarga haq-huquqlarini talab qilib chiqqanligi haqidagi ma'lumotlarning asosli manbasi yo'q. Bu xususida gap ketganda Yevropadagi kommunistik harakatni xalq ko'ziga yomon ko'rsatish orqali yo'qqa chiqarishga qaratilgan harakatlarning mantiqiy bo'lagi emasmi, degan bir savol tug'iladi? Shuningdek, bu masalaga oid asossiz aylovlar yoki isbot talab etiladigan vajlar borligini ham unutmasislik lozim. Hayratlanarlisi, ushbu harakatlar AQSHdan Yevropaga osongina ko'chib o'tgan. Boz ustiga

Yevropadagi bu harakat ortida AQSHga ancha uzoq bo'lgan Rossiya inqilobchilarining turganligi haqidagi qarashlar ham kishini o'yanlantirishi tabiiy. Chunki o'sha davrda AQSHda inqilobiy harakatlar emas, balki Janub-Shimol urushlari, mulkka egalik hislari ustuvorlik qilayotgan paytalar bo'lgani ham tarixiy manbalarda aks etgan. Shuningdek, quldarlikdan, ya'ni qora tanli qullardan voz kechish yoki kechmaslik urushning bosh sabablariidan bira bo'lgan. Nazarimizda bunday sharoida ayollarning o'z haq-huquqlarini uchun kurashi u qadar mantiqqa to'g'ri kelmaydi, nazarimizda. Mana shu tarixdan qisqachagini ko'chirma 8-martga bo'lgan munosabatimizni qayta ko'rib chiqishga undashi lozim. Eng muhimi, bosh g'oya ayollarning haq-huquqlarini ta'minlashga qaratilgan bu kabi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlamaslik mumkin emas, albatta. Chunki millatimizda xotin-qizlarga munosib ehtirom ko'rsatish har birimizning qon-qonimizga singib ketgan. O'ylaymizki, bayramning kelib chiqishi bilan bog'liq taxminlarning xolislikdan uzoqligi, ayrim ma'lumotlarning taxminlarga asoslanganligi 8-mart sanasini nishonlashimizga, xotin-qizlarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan g'oya va tashabbuslarga halal bermasligi kerak.

Shu o'rinda deputat va senatorlarimiz, mahalla, nuroniy, xotin-qizlar va yoshlar faollariga, butun xalqimizga qarata aytmoqchiman: eng bebaho oliy ne'mat - tinchligimiz va osoyish taligimizning qadriga yetaylik, oilarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxtu kamoli uchun bu ulug' boylikni asrab-avaylaylik!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasidan

MUROJAAT  
-NAZAR

# QAYOLGA

## Baxt BERING, SAODAT BERING...

### 8-martni nishonlash shart(mi?) deganlarga



KITOB HECH  
QACHON O'Z O'RNNINI  
YO'QOTMAYDIGAN  
BUYUK KUCH

O'zbekiston Respublikasi "Mahalla" xayriya jamoat fondi tomonidan "Har bir mahallaga kitob" loyihasi Jizzax viloyatida ham amalga oshirilmoqda. Kitobsevar xalqimizning azal-azaldan uylarida shaxsiy kutubxonasi bo'lgan. O'z davrining noyob asarlari xonadonlarning to'ridagi tokchalarlardan joy olgan. So'ngi 5-6 yilda yurtidoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarda kitoba qiziqish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish tobora muhim ahiamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida ham har bir mahallada kutubxonasi tashkil etish kerakligi ta'kidlangan edi. Shu maqsadda O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi tomonidan "Har bir mahallaga kitob" loyihasi tashkil etildi.

Loyha doirasida fond tomonidan Jizzax viloyatidagi 206 ta mahalla fuqarolar yig'indiriga 50 nomdag'i 10 mingdan ortiq nodir asarlari to'plami ajratilib, bu kitoblar karvonni Jizzaxga yetib keldi. - Kitoblar hech qachon o'z o'rnnini yo'qotmaydigan buyuk kuch bo'lib, mahallalarga topshirilgan kitoblar har bir mahallaning mo'jazgina kutubxonasidan o'rni oladi, undan aholi keng foydalanadi, - deydi "Mahalla" xayriya jamoat fondi Jizzax viloyati boshqaruvi raisi Abdumajid Sattarov. - Zero, bu adabiyotlar bugun xalqning ma'naviyati yuksalishi uchun eng zarur manbadir. Viloyatdagi mahallalarga yetkazilgan kitoblar to'plami, har bir mahallada o't kutubxonasini tashkil qilish, aholini kitoba bo'lgan qiziqishini oshirish, mahalla ahlining bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazish va mahallalarning ma'naviy xazinasini yanada boyitishga xizmat qiladi. Jizzax shahriga yetib kelgan shahriga nodir asarlari "Mahalla" xayriya jamoat fondi viloyat boshqaruvi tomonidan mahallalarga topshirilmoqda.

A.QAYUMOV



# HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI BOSHLANDI

Misr Arab Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini nafaqat binchilardan bo'lib tan olgan, balki yaqin hamkorlik o'rnatgan davlatlardan birdir. Bugun davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar o'zaro ishchonch tamoyillari asosida rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Misr Arab Respublikasiga rasmiy tashrifi ikki davlat hamkorligida yangi bosqichni boshlab berdi, deyish mumkin. Shu o'rinda tashrif doirasida O'zbekiston-Misr aloqalarini rivojlanitish, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, madaniyat va ta'lif sohalari bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan Qo'shma bayonet qabul qilinib, ikki tomonlama hujjalarni imzolandi.

Ikki davlat ishbilarmonlari o'rtasida o'tkazilgan

"Misr-O'zbekiston biznes forumi", ayniqsa, samarali bo'ldi. Unda tegishli vazirlik, idora va tarmoq birlashmalarining rahbarlari, ikki

mamlakat ishbilarmon

doiralarining 200 ga

yaqin vakillari ishtirok

etdi. Tadbir ishtirokchilari iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida ikki

tomonlama sarmoyaviy,

savdo iqtisodiy

hamkorlik hamda

sanoat kooperatsiyasini

rivojlanitish uchun katta salohiyat mavjud ekanligini ta'kidladilar.

Forum ishtirokchilari ikki

davlatning investitsiyaviy

va tashqi savdo faoliyatini

amalga oshirish uchun

muayyan sohalarda

yaratilgan shart-

sharoitlar bilan yaqindan

tanishdilar. Hamkorlikning umumiyo manfaatlari va istiqbollarini muhokama qilish hamda kelgusida birgalikda ro'yogba

chiqarish maqsadiga aniq loyihibav takliflarni ko'rib chiqildi. Yakunda kimyo, energetika, tog'-kon sanoati, to'qimachilik, charm-

poyabzal va oziq-ovqat mahsulotlari mahsulotlari ishlab chiqarish, sanoat zonalarini rivojlanitish, infratuzilmani rivojlanitish, qurilish va farmatsevtika kabi sohalarda qo'shma loyihibalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi. Ma'lumki, dunyoda so'nggi yillarda nafaqat farmatsevtika, balki tibbiyot asbob-uskunalarini texnikalarini ishlab chiqarish ham tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylandi. Mamlakatimizda dastlab 20 turda shunday mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirga kelib ular soni yuzdan oshib ketdi. Biznes forumda O'zbekiston tibbiyot asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar uyushmasi rahbari sifatida men ham ishtirok etdim. Chunki Misrda ham keyingi yillarda tibbiyot asbob-uskunalarini texnikalarini ishlab chiqarish rivojlanmoqda. Soha xodimlari bilan yuzma-yuz uchrashuvlар o'tkazib, avvalo bu borada tajriba almashdik, qo'shma korxonalar tashkil qilish orqali hamkorlikda yangi mahsulotlar ishlab chiqarishiga kelishib oldik. Zero, bir-birimizning o'rganadigan jihatlarimiz ko'p ekan.

Ta'kidlash lozim, biznes forum ikki mamlakat tadbirkorlari aloqalarini yanada rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Forum doirasida umumiyo qiymati 1,6 milliard dollarlik 20 dan ziyod bitim va shartnomalarini amalga oshirish yuzasidan aniq kelishuvlarga erishilgani shundan darak beradi.

**Otabek JIYANBAYEV,** partyaning Toshkent shahar Kangashi raisi, O'zbekiston tibbiyot asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilar uyushmasi raisi

Jahon banki ma'lumotiga ko'ra, Misrning Yalpi ichki mahsulot hajmi 2021-yilda 404 mlrd. AQSH dollaridan oshgan. Qariyb 110 mln aholiga ega va bu borada arab davlatlari orasida yetakchi bo'lgan mammalakatning umumiyo sanoati 25 foizi to'qimachilik hissasiga to'g'ri keladi. Meva va poliz ekinlari sharbati eksporti bo'yicha O'rta Yer dengizidagi beshta, zaytun yetishtirishda esa dunyodagi 10 ta yirik davlatlidan birdir. Misr eng yirik portlar va zamonaliviy konteyner tashish tizimiga ham ega. Yevropani Sharq bilan bog'laydigan eng yirik tranzit yo'llari aynan Misrda o'tadi. Afrika qit'asiga dengiz yo'lli ham Misrda boshlanadi. Bunda Qizil va O'rta yer dengizlari birlashtiruvchi Nil va Suvaysh kanali muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda dunyo iqtisodiyotining drayveriga aylanayotgan sayyoqlikda Misr katta muvvafqaityatlarga erishmoqda. O'tgan yili ushu mamalakatga 11 mln nafar sayyoqlik tashrif buyurgan va bu ko'rsatkich 2021-yildagiga qaraganda 40 foizga ko'p. Eng asosiy ko'rsatkich: 3 mln. dan ortiq odam shu sohada band va sayyoqlik davlat g'aznasiga 30 mlrd AQSH dollarini miqdorida foyda keltiradi. Bu YAIM 5,6 foiz deganidir. Al-Azhar universiteti muslimon olamining eng obro'li ta'lif dargohi hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, bugun dunyoga faol integratsiyalashayotgan har qanday davlat qulay geografik nuqtada joylashgan Misr bilan aloqalarini mustahkamlashdan manfaatdor. Jumladan, mamlakatimiz ham. O'zbekiston va Misr o'z mintaqalarida faol iqtisodiy savdo, investitsiyavi va logistika muhitini yaratmoqda. Shu salohiyat birlashtirilsa, ko'plab yangi bozorlar paydo bo'ladi. Xususan, o'z eshlifklarini dunyoga kengroq ochayotgan O'zbekistonning Afrika davlatlari bilan aloqalarini ham kengayadi. Qayd etish joizki, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ushu qif'aga eksport qilishda Misr asosiy darvoza vazifasini o'tayти. "Misr - Afrikaning kaliti", degan ibora ham bejizga

aytilmagan. O'z navbatida, Misr sarmoyadorlari ham Markaziy Osyo bozoriga chiqishda mintaqaga markazida joylashgan O'zbekistondan ko'priksifatida foydalanishmoqchi. Shu jihatdan, O'zbekiston rahbarining Misr yetakchi kompaniya rahbarlari bilan uchrashushi samarali bo'ldi. Garchi o'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari karrasiga oshib, qo'shma loyiha va korxonalar soni 6 barobar ko'paygan bo'lsada, uchrashuvda ishbilarmonlik va tadbirkorlikni kengaytirish, o'zaro investitsiyalarini faollashtirish, savdoni oshirish uchun kattaroq imkoniyatlar borligi ta'kidlandi. Ishbilarmon doiralarning birlgilidagi sa'y-harakatlari bilan o'tmisda gullab-yashnagan Buyuk Ipak yo'lidek mustahkam hamkorlik ko'priklarini qayta tiklashda muhim ahamiyati kasb etishi ko'rsatib o'tildi. Qayd etish lozim, Davlatimiz rahbarining Misrda sayyoqlikda tashriflari davomida Savdo-sanoat palatasining tashhabusi bilan mammalakatimizdagidagi 50 dan ortiq yetakchi kompaniyalar vakillari, jumladan, O'zbekiston eksportchilar uyushmasi a'zolari ham hamkorlik qildilar. O'zbekiston-Misr biznes forumi doirasida ikki davlat ishbilarmonlari ishtirokida B2B uchrashuvlari tashkil qilindi. Energetika, elektrotexnika, kimyo, tog'-kon, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, charm-poyabzal tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasi uchun keng imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi. Eng asosiyi, qo'shma loyiha va kelishuvlarni amalga oshirishni tez fursatda boshlash bo'yicha takliflar bildirildi. Uchrashuvlari natijasida umumiyo qiymati 1,6 mlrd dollarlik 20 dan ziyod bitim va shartnomalarini amalga oshirish yuzasidan aniq kelishuvlarga erishildi. Misrning yetakchi kompaniyalarini vakillari o'z chiqishlari

Yangi O'zbekiston islohotlarini yuqori baholab, mamlakatagi yangilanishlar, iqtisodiyotning liberalashuvu va qulay investitsiya muhitini yaratilgani Misr biznesining O'zbekiston bozoridagi faoliyatini kengaytirish uchun katta imkoniyatlar ochayotganini e'tirof etdilar. Davlatimiz rahbari Misr sivilizatsiyasi milliy muzeyida misrlilarning boy tarixidan hikoya qiluvchi noyob eksponatlar bilan tanishar ekanlar, tarix va madaniyat buyuk merosga ega xalqlarimizni yaqinlashtirishning muhim vositasini ekanini ta'kidladilar. Ikki mamlakat muzeylari va tarixchilari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, umumiy merosimizni birlgiladka o'rganish, o'zaro ko'rgazmalar, madaniyat kunlari tashkil etish ham muhimligi qayd etildi. Prezidentimiz o'z davrining yetuk astronomi, matematigi va geografi bo'lgan, Bag'dod va Damashqda ilmiy tadqiqotlar o'tkazgan, 856-yildan esa Qohirada yashab, umrining so'nggiga qadar Misrda ilm-fan bilan shug'ullanigan vatanoshimiz Ahmad Farg'oniyining 2007-yilda Miqyosi Nil yaqinidagi xiyyobonda o'rnataligan haykalini ham ziyorat qildi. Ma'lumki, mutafakkir bobomiz 861-yili Nil daryosidagi Ravza orolida suv sathini o'chaydig'an inshoot barpo etirgan. "Miqyos an-Nil" nomi bilan mashhur bu qurilma qishloq xo'jaligi va iqlimi baholashda juda muhim hisoblangan. Qariyb 1200 yil davomida ushu inshootdan uzuksiz foydalilanigan. Bugungi kunda esa u turistik maskanga aylantirilgan. Oliy darajadagi muzokaralarda ham, tadbirkorlar uchrashuvlari da ham o'zaro o'shashshlik jihatlar ko'pligi ta'kidlandi. Jumladan, bugun ikki mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar – Yangi O'zbekiston strategiyasi va Misrning "Yangi Respublika" dasturi bir-biriga hamohang. Yangi ish o'rnlari yaratish va kambag'allikni qisqartirish, abolin ijtimoiy himoya qilish va shaharlar infratuzilmasini rivojlanitish. Misrda ham eng ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu omillar, ya'ni qarashlari, taraqqiyot yo'lli, maqsad va vazifalari uyg'un bo'lgan ikki davlat aloqalarini rivojida yangi bosqichni boshlab berishi shubhasiz.

**Yorqin MALIKOV,** xalq deputatlari Olmazor tuman Kangashi deputati, O'zbekiston Eksportchilar uyushmasi raisi

"Milliy tiklanish" demokratik partiysi Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi vakillarining navbatdagi yig'ilishida 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar tahliliy-tanqidiy ko'rib chiqildi. Ayni paytda partiyaning Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesida 11, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlarida esa 91, jami 102 nafar deputat faoliyat yuritmoqda.



## QORAQALPOG'ISTONDA DEPUTATLIK SO'ROVI INSTITUTIDAN FOYDALANILMAYOTGAN TUMANLAR HAM BOR

Ta'kidlanganidek, saylovchilar bilan uchrashuvlari, aholining kam ta'minlangan, yordamga muhtoj qatlamlariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy-moddiy ko'mak, deputatlik so'rovlari yuzasidan olib borilgan ishlar chuqur tahlil etilsa, yetarlicha kamchiliklarni mayjudligi ayon bo'ladi.

Deputatlik lavozim emas, katta mas'uliyat. Shunday ekan, saylovchilar ishonchini oqlash, partiyaning 2020 – 2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida belgilangan vazifalar ijosini ta'minlash, olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, aholi muammlorini hal etishda sidqidildan harakat qilish lozim. Afsuski, oramizda ana shu mas'uliyat va faollikni unutayotgan deputatlar ham bor, – deydi partiyaning Qoraqalpog'iston

Respublikasi Kengashi raisi, Jo'qorg'i Kengesdag'i fraksiya rahbari Tajibay Romanov.

O'tgan yili Jo'qorg'i Kengesdag'i partiya fraksiyasi a'zolari tomonidan qonun va hukumat qarorlari ijosini nazorat qilish yuzasidan 9 ta, fuqarolar murojaatlari asosida 192 ta, jami 201 ta deputatlik so'rovlari yuborilgan. Sessiyaga 2 ta masala kiritilib, qaror qabul qilingan, mansabdor shaxslarning hisobotlari eshitilgan.

Shuningdek, xalq deputatlar tuman va shahar Kengashlaridagi partiya deputatlik guruhlari tomonidan mansabdorlarga 356 ta deputat so'rovi yuborilgan. Sessiyalariga 44 ta, doimiy komissiyalariga yig'ilishlarida esa 64 ta masala kiritilib, 38 marotoba mansabdor shaxslarning hisoboti eshitilgan.

Deputatlik so'rovlari jami 557 tani tashkil qilgan bo'lsa, ularning 495 tasi ijobji hal qilingan. 62 tasi yuzasidan esa huquqiy maslahatlar berilgan.

– "Uyma-uy" loyihasi asosida 80 dan ortiq kam ta'minlangan oilalarga kirib, yoshlarning muammolari o'rGANildi, 6 nafar yoshning bandligini ta'minlashga erishdim, – deydi Jo'qorg'i Kenges deputati Anjela Omirova. – Hisobot davrida aholi murojaatlarini hal qilish maqsadida tegishli tashkilotlarning mas'ul rahbarlariga 75 ta deputatlik so'rovi yuborilgan bo'lsa, shundan 74 foizi ijobji yechim topdi. Qolgan 26 foizi o'rGANish jarayonida.

Yig'ilishda o'tgan yili xalq deputatlar tuman va shahar Kengashlari sessiyalariga Ellikqal'a 6 ta, To'rtkul 7 ta, Beruniy, Amudaryo, Bo'zatov va Mo'yinoq tumanlarida 8 tani

guruhlari tomonidan birorta masala kiritilmagan keskin tanqid qilindi. Bo'zatov, Taxtako'pir va Taxiatosh tuman Kengashlaridagi deputatlar tomonidan doimiy komissiyalarga masala kiritilmagan bo'lsa, Beruniy, Amudaryo, Qonliko'l, Bo'zatov, Chimboy, Taxtako'pir, Taxiatosh va Nukus tuman Kengashlaridagi deputatlarimiz tomonidan birorta mansabdor shaxsning hisobotlari eshitilagan.

Deputatlik so'rovi bo'yicha ko'rsatkichlar ham qoniqarli emas. Xususan, Qonliko'l tuman Kengashiga saylangan deputatlarimiz tomonidan yil davomida bor-yo'gi 1 ta deputat so'rovi yuborilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Taxtako'pir 3 ta, Ellikqal'a 6 ta, To'rtkul 7 ta, Beruniy, Amudaryo, Bo'zatov va Mo'yinoq tumanlarida 8 tani

tashkil qilgan.

Yig'ilishda Jo'qorg'i Kengesdag'i partiya fraksiyasingin 2023-yilda belgilangan ish-rejasa ham ko'rib chiqilib, qizg'in muhokamalardan so'ng tasdiqlandi. Unda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaati, 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda partiyamizning 2020 – 2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida belgilangan chora-tadbirlardan kelib chiqib, bir qancha vazifalar belgilab olindi.

**Mirzaxmet TAJIMURATOV,**  
partiyaning  
**Qoraqalpog'iston Respublikasi**  
**Kengashi bosh mutaxassisini**

Tashabbus

## WIKIPEDIYA – BU DUNYO SARI YO'L, AMMO...



... internet masofa bilmaydi u insonlarni bir-birlari bilan bog'lovchi vosita rolini ham bajarmoqda. U o'z o'rnida ilm-fan, madaniyat va barcha xalqlarning o'zaro muloqot maydoniga ham aylanib ulgurdi. O'zbekiston Jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda "WikiStipendya" loyihasi doirasida "Wikipediyaga" informatsion portalini o'zbek tilidagi ma'lumotlar bilan boyitishda munosib hissa qo'shib kelayotgan universitet talabalari rag'batlantirish va mazkur loyiha soha mutaxassislarini jaib etgan holda talaba yoshlarni internetdagi Wikipediyaning o'zbek tilidagi ma'lumot va manbalar bilan boyitishda o'z tajribalarini ulashishlarini tashkil etishga qaratilgan tadbirda ana shunday fikrlar bildirildi.

– Ayni kunga Wikipediya jami 1,5 mingdan ziyod talabalarimiz o'z maqolalarini joyladilar. Wikipediya maqola joylagan eng faol talabatarning

maqolalari Wikipediya administatorlari tomonidan tekshirildi, – deydi Internet jurnalistikasi va mediamejnejment fakulteti dekanasi Gulnora Zokirova. – Wikipediya tashkilotchilari tomonidan tashkil etilgan <https://fountain.toolforge.org/editathons/uzjuko/baholash> jadvali asosida eng ko'p ma'lumotlar yuklagan talabalarimiz tanlovnining universitet bosqichida g'olib bo'lib budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan taqdirlanildilar.

– Wikipediya – ko'p tilli, erkin, onlayn ensiklopediyadir. U ko'ngililar jamoasi tomonidan ochiq hamkorlik hamda wikiga tayanuvchi tahrir tizimi asosida yoziladi va yuritiladi. Ushbu loyiha 2001-yil 15-yanvarda mutaxassislariga mo'ljallangan Nupediya to'diruvchi sifatida yaratilib, hozirda uni notijorat Wikimedia Foundation tashkiloti bosqaradi, – deydi universitet rektori, professor Sherzodxon Qudratxo'ja.

– Bugunga kelib Wikipediya eng katta va eng ko'p ko'zdan

kechiriladigan ma'lumot manbasidir. Hozirda bu bepul ensiklopediyadan dunyoning 283 tilida yozilgan 59 milliondan ortiq maqolalar joy olgan. Wikipediyaning eng katta ingliz tili bo'limida 6 627 226 ta maqola bor.

O'zbek tilidagi wikipediya da

esa 221 672 ta maqola bor.

Foydaluvchilar soni – 92 339.

Jami sahfalar soni munozara,

turkum va hokazolar bilan qo'shib hisoblaganda – 819 083 tani tashkil etyapti.

Shulardan kelib chiqib, universitetimiz talabalarini tomonidan Wikipediya da

maqolalar sonini oshirishni

maqsad qilib qo'yidik. Natijada 5

mingta maqola joylashtirildi.

Bu talabalarimizning avvalo, o'zbek

tilimizda ijod qilishlari, bu borada izlanishlari hamda rag'bat olishlari

uchun xizmat qiladi.

– Men yoshlarni millatimiz

tarixini yaxshilab o'rangan

holda Wikipediya joylashishlarini

so'ragan bo'lardim, – deydi

O'zbekiston Yoshlar ishlari

agentligi rahbari Alisher

Sa'dullayev. – Tarixni bilish uchun avvalo tarixni yaxshilab o'qish, dalilarga tayangan holda ma'lumotlarni joylash zarur. Masalan, "O'zbekishi" tarixi to'g'risida wikipediyanadan ma'lumot qidirsam, tayinli bir ma'lumotni topa olmadim. Chunki bu haqdagi ma'lumot wikipediya joylashtirilgan. Kimki, Vatanini sevsu uni tarixini ham haqqyoniy qilib ochib berishi va bu bilan faxrланishni kerak. Bugun talabalar 5 mingta maqolani joylashtirib. Bu maqolalar sifatli va muhim manbalarni o'z ichiga olgan degan umiddam.

– Universitetimizda tanlov e'lon

qilinganidan keyin wikipediya

sport va tarix haqida maqolalar

joylashtirib, 3 mln.

so'mlik pul mukofoti oldim.

1-o'ringa munosib deb topilgan

Shoxislom Sharobiddinov esa

10 mln. so'mlik mukofot bilan

taqdirlandi, – deydi tanlovda

3-o'rinni olgan universitet talabasi

O'rolboy Boltaboyev.

– Men wikipediya maqolalar

joylash jarayonida har kim har narsani emas, o'z sohasidan kelib chiqib maqola joylasma maqsadga muvofiq bo'lar ekan degan fikrada keldim. Men o'zbek jurnalistikasi hamda xalqaro jurnalistikato to'g'risida maqolalarni joyladim. Bu o'z sohamni yanada chuqurraq o'rganishni va maqola yozishga bo'lgan ishtiyoyqimni oshirdi, – deydi tanlov nominatsiyasi g'olib, talaba Diyorbek Sultonaliev.

2011-yilning oxirida nomalum sabablarga ko'ra, O'zbekiston

hududida o'zbek Wikipediysi to'sib qo'yilgan edi. Bu o'zbekcha Wikipediyaning rivojlanishini jiddiy osqosqlantirdi. Bugungi kunda esa O'zbekistonda foydaluvchilar o'zbekcha Wikipediya sahfalarini hech qanday muammolarsiz ocha oladilar.

Ishonchimiz komilki, ushbu tanlov yana minglab talabalariga rag'bat beradi, yakunda esa Wikipediya o'zbek tilidagi maqolalarning ko'payishiha olib keladi.

**Violyat SHODIYEVA,**  
**"Milliy tiklanish" muxbirini**

“ ”

"Pabji" kabi qon to'kish va urushni targ'ib qiluvchi o'yinlar ta'sirida ulg'aygan avloddan nima kutish mumkin? Bir-biriga achinish, hamdardlik, mehr-shafqat, marhamat, o'zaro do'stlik fazilatlari uning fe'l-atvorida shakllanarmaykin?"



# FARZANDINGIZNI VIRTUAL OLAMDAN REAL OLAMGA QAYTARING!

Ayrim kasalliklarni vaqtida davolamasda tuzatib bo'lmash asoratlarga olib kelganidek, farzand tarbiyasida ham kechikishga aslo haqli emasiz. Ayniqsa, o'g'il bola tarbiyasida sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmagisini hayotning o'zi ko'p bor isbotlagan. Oddiygina bir misol, bugun farzandlarimiz tug'ilib, emaklay boshlashi bilan qo'llariga o'yinchog o'rnda smartfonlar beryapmiz. Shu o'rinda tabiy savol tug'iladi: nega telefon degan matoh bolalarni ohangrabodek o'ziga tortyapti? Bugun ota-onalarning hammasi ham bolasi qanday o'yin o'yinayotganiga qiziqib ko'ryaptimi? Aksariyatlari bolalar hozirgi kunda «Pabji» changaliga tushib, o'yinning quliga aylanib qolayotganini tushunishyaptimi?

Bu noming o'chgor o'yin bolalarining hatto maktabdagisi ta'lim-tarbiyasiga ham halal berayapti. Eng yomoni, bunday o'yinlar bugun sindoshlar orasida pullanayotgani, o'quvchilar bir-birdan katta miqdorda qarz bo'lib qolayotgani, buning ortidan hatto aytishga qo'rriadigan voqealar yuz berayotganini ham haqiqat. Biz, odadta, o'quvchi bolamizni ursa yoki unga qattiqroq gapisra, «oyog'imizni qo'lga olib» maktabga chopamiz, ustozni obro'sizlantirish, kerak bo'lsa, uni ishdan haydatishga boramiz ham. Ammo ana shunday vaqtarda farzandimiz ham xuddi biz kabi ustozini behurmat qilishi, hech kimdan hadiksiramay, menga hamma narsa mumkin qabilida nomaqbul yo'llarga kirib qolishimi xayolga ham ketirmaymiz.

Endi o'zingiz o'ylab ko'ring, ota-onaning o'zi loqayd bo'lsa, maktabdagisi o'quvchi qanday qilib bolani to'g'ri yo'lga boshlay oladi? Vaholanki, bunday vaziyatda ota-ona va o'quvchi hamkorligi juda muhim. Imkon bo'lsa, ta'lim jarayonida sustkashlikka yo'l qo'yayotgan, darslariga o'z vaqtida ulgurmeyotgan, kech qolayotgan, o'yinqaroq bolalar ro'yxatini shakllantirilib, ular ustidan nazoratni kuchaytirish zarur. Bu

- ✓ «PABJI» DOMIGA TUSHAYOTGAN BOLALAR
- ✓ OGOK BO'LING: KELAJAGIMIZGA VIRTUAL TAHDID
- ✓ BOLALARINGIZ VIRTUAL DUSHMANDAN HIMOYALANGANMI?

muammo o'zinga ham tanish... Ya'ni, farzandim ham shu o'yining qiziqadi, har kuni tunda uxlab qolishimni kutadi, sal hushyor bo'lmash, telefonimni olib, albatta, «Pabji»ga yopiriladi. Kuni kecha o'g'lim o'zi tilidan tutildi: «Oyi, Abdulloh degan sindoshim «Pabji»ga puf tikib, yutqazib qo'yibdi, mendan qarz so'radi, men esa o'z muammongni o'zing hal qil deb pul bermadim», dedi. Shundan ham tushundim-ki, balog'at ostonasida turgan farzandlarimiz, asosan o'g'il bolalar «Pabji»lar tuyafli qimorbozlardek qarzga botishyapti. Maktab davridanoq, bu taxlit noto'g'ri yo'lga kirib qolgan boladan qanday qilib buyuk kelajakni kutish mumkin?. Bir tasavvur qilib ko'ring-a, bola do'staridan olgan qarzini qanday qilib uzadi? Buning ortidan mayda o'g'irlilik, bezoriligi va boshqa jinoylar kelib chiqmasligiga kim kafolat beradi?

Shu o'rinda mazkur onlaysay o'yinning kelib chiqishi,

mazmun-mohiyati va qoidalariга to'xtalib o'tsak. «Pabji» o'yiniga

Internetdagи Vikipediada quyidagicha ta'sif berilgan:

«Bluehole» Koreya kompaniyasining «PUBG

Corporation» studiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Pabji o'yinining o'zagi qirollik jangi, ya'ni, unda 100 tagacha ishtirokchidan o'ziga qurol-aslaho tamlash va bir-birini o'ldirish talab qilinadi. Shuningdek, «jangchilar» uchun ajratilgan xavfsiz hudud borgan sari qisqarib, o'z-o'zidan yutish imkoniyati kamayib boraveradi». Biz bu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi ko'krak nishoni sohibi, journalist Muborak Oxunovaning fikrlari bilan qiziqidik:

— «Pabji» kabi qon to'kish va urushni targ'ib qiluvchi o'yinlar ta'sirida ulg'aygan avloddan nima kutish mumkin? Bir-biriga achinish, hamdardlik, mehr-shafqat, marhamat, o'zaro do'stlik fazilatlari uning fe'l-atvorida shakllanarmaykin?

Afsuski, shaxsan mening bunga shubham bor! Yana bir masala: nega ota-onalar o'z farzandlarining qo'liga qimmatbaho smartfonlari olib berishyapti? To'g'ri, telefon bola bilan doimiy aloqada bo'lib turish, uning manzilini bilish uchun qulay vosita.

Lekin bu vazifalarni murakkab funksiyalarga ega bo'lmagan oddiy qo'l telefonlari ham bajara oladi-ku. Menimcha,

bolalarimizni virtual olamga emas, real hayotga, ilm-u

hunarga, kitob, gazeta,

jurnallarga oshno qilsak, ko'proq

yutamiz.

Mazkur o'yinining bolalar ongiga salbiy ta'siri hisobga olinib,

Hindiston, Pokiston, Afg'oniston hamda Nepal mamlakatlari


hududida taqiqilandi. Bu esa ushbu masalaning naqadar jiddiy ekandan dalolatdir.

Vaqf "xayriya jamoat fondiga qarashli va pulli

kirish chiptasi joriy qilingan madaniy meros obyektlari – ziyoratgoh va qadamjolarda 18 –

22-mart kunlari yurtimiz fuqarolari uchun kirish chiptasi narxidan

kattalar uchun 20 foiz, yoshlar uchun 50 foiz chegiriladi.



# QAYU MILLATDA MAKTAB O'LMASA,

urkiston istiqbolini o'ylovchi taraqqiyarvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalarida mavjud bo'lgan. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish, siyosiy-ma'rifiy jahabadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda shakllana boshladi. Ular orasidan yetuk olimlar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtни olob va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lida fidoyilarcha kurashdilar.

Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, turli ma'rifat jamiyatlar va teatr truppalarini tuzish, gazeta va jurnallar chop qilish harakatiga bosh bo'lishdi.

Farg'onan vodiysida Ibrat, Ashurali Zohiriy, Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda, Cho'lon, Ibodiy singari ma'rifatparvarlar bu harakatning asoschilarini sifatida etirof etiladi.

Vodiya jadidchilik harakati o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turgan. Ayniqsa, maktablar va o'quvchilar soni ko'pligi, ilk bosmaxona Farg'onada ochilishi, siyosiy maqsadlar rang-barangligi jadidchilik harakati chuqur mahalliy ildizlarga ega bo'lganidan dalolat beradi. "Sadoi Farg'onan", "Sadoi Turkiston" gazetalarining mahalliy xalq milliy-siyosiy ongi rivojlanishida muhim o'rın tutishi Farg'onan jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi.

Keyingi yillarda yaqin o'tmish asarlarini bugungi kunda shakllangan tahlil tamoyillari asosida baholash borasida talay xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning "Biz diniy jaholatga, zararli oqimlarga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerakligi haqida ko'p gapiramiz. Bu to'g'ri, albatta. Lekin ma'rifat, ma'rifiy bilimlar qayerda – avvalo, otabobolarimiz bizga goldirib ketgan mo'tabar kitoblarda emasmi?", degan so'zlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda millat bolalari uchun maktablar oshib, ta'lim-tarbiya tizimida mutlaqo yangi yo'nalish targ'ibotchisi bo'lgan Hamza Hakimzoda Niyoziy shaxsiga ham taalluqlidir.

Shoirning hayoti va ijodiy merosi komunistik mafkura sharoitida xolis va to'laqonli tadqiq etilmaganidek, mustaqillik davrida ham jiddiy qayta o'rganilgan emas. Shu boisdan ham shoirning qo'yozmalarini qiyosiy o'rganish va uning asarlarini tarix va adabiyotshunoslikda erishilgan bugungi kun yutuqlari asosida qayta tadqiq qilish zarurati mavjud. Shoir teatr, dramaturgiya rivoji va ilgor ma'rifiy-huquqiy fikrlar rivojlanishi tarixida muhim o'rın tutgan shaxslardan biderid. Chunki u ma'rifatparvar va demokratarning siyosiy g'oyalarni rivojlanirib, o'zining turli janrdagi asarlarida mahalliy aholining ongiga siyosiy g'oyalarni olib kirishga, targ'ib qilishga va ularning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U murakkab, biroq mazmundor hayot yo'llini bosib o'tdi.

Yosh Hamza adabiyotga havas qo'yar ekan, avvalo, Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi klassik shoirlar, ayniqsa, Muqimiy va Furqat asarlaridan bahramand bo'ldi, ularga ergashib she'rlar yozdi. Hamzaning shaxsiga axrivida 1905-1914-yillarda mobaynida "Nihon" taxallusini bilan yozgan 214 ta g'azal va muxammas ro'yxatini bor. Shulardan 4 tasi 1905-yilda bitilgani aytigan. Shoirning 1948-yilda topilgan "Devon'i buni


tasdiqlaydi. Hamza 10-11 yoshida she'r yoza boshlagan, 25 yoshida "Devoni Nihoniy" to'plami nashr qilindi. Devonga uning 15 yil ichida yozgan 177 ta she'r kiritilgan. Ulardan 150 tasi g'azal, qolgani turli janrlarga oid. Devondagi 165 ta g'azal o'zbek tilida, 10 tasi tojik tilida, 2 ta she'r esa o'zbekcha va ruscha so'zlar aralashtirib yozilgan. Shakl va mazmundagi bunday yangilanishlar, shubhaisiz, shoirning chindan ham XX asr o'zbek ma'rifatparvarlik taraqqiyotiga katta hissa qo'shganini ko'sratadi.

Xalo ommasini ma'rifatli qilish Hamza faoliyatida asosiy o'rinni tutadi. U ehtiyojmandlarni bolalar o'quv qo'llanmalari, ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash maqsadida "Jamiyatni xayriya" tashkil qildi. Bu maktabning dovrug'i Qo'qon shahridan tashqariga ham tarqala boshladi. Mahalliy ma'murlar bundan hayiqib, 1913-yilda maktab va jamiyatni yopadilar. Ammo ma'rifatparvar ijdor ko'txbab qolmadidi. U 1914-yil 8-dekabrda Qo'qondagi Muhammad Sharif mahallasida Miraziz ellikboshi o'g'lining bog'ida "Dorul aytom" (Yetimlar uyi) ochadi. U bunday deb yozgan edi: "Biz yo'qsillarning bolarini va yetimlarni o'qitishni xoylaymiz, ularning miyalarni foydalish bilan mash'ul qilmoqchimiz, shuning uchun ham o'zimizning "Dorul aytom"imizni oshchidik. Bu maktabda o'qitish tekin bo'lishi bilan birga bolalarga daftarlari, yozuv ashyolari va kitoblar ham tekin beriladi".

U o'z maktabi uchun "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" kabi darsliklar yaratdi. Bu darsliklarda har bir dars so'zlarning kelib chiqishini izohlashdan boshlanadi, so'ngra bu tushunchaning falsafiy mazmuni beriladi. Mustamlakachi ma'muriyat mahalliy xalq ta'limi rivojlanishiga aslo toqat qila olmas edi. Shu sabab turli yo'llar bilan to'sqinlik qilar edilar. Buni anglagan Hamza ta'limning tushunarli va ko'rgazmalligi singari aniq ta'lim-tarbiya qoidalarni qattiq turib himoya qildi. Bunga quyidagi misolni keltirish mumkin. Maktabda geometriya darslaridan birida ko'rgazmali quroq yo'q edi. Natijada dars unchallik ishonchli chiqmagan. Hamza zarur ko'rgazmali qurollarning esklarini yasab, Shohimardonagi duradgor ustaga tayyorlashga buyurtma qildi. So'ngra asbobiardan foydalana boshladi. Shunday qilishni boshqa o'qituvchilarga ham maslahat berdi.

Mashhur ma'rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonov Hamza asarları nashriga oid maktubida bunday yozadi: "Yengil adabiyot"ingizga a keloncha namunalardan ma'lum o'dig'ina ko'ra vazn jihatidan shogirdlar uchun ko'p yaxshi tartib etilgan ko'rinarad. Faqat til, ma'no va mazmun jihatidan bir oz soddarog olsa edi, daho muvofiqroq o'lurdi".

Shoir 1914-1915-yillarda yozilgan "O'qil", "Ilm ista", "Olim bo'laylik", "Kitob", "Qalam",



# BESHAK XAROB O'LGAY...

"Maktab", "Hikoya", "To'g'riso'z bola", "Toshbaqa bilan Chayon", "Qimoring boshi", "Bolaning yomon bo'lomog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" kabi ijod namunalarida ilm-ma'rifat, ahlq-odob, to'g'rilik, halollik, chin do'stlikni targ'i qildi. Sho'r o'z davrida sodir bo'layotgan voqe va hodisalarni sinchiklab kuzatib bordi. "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'on'a", "Ulug' Turkiston" gazetalarida, "Al-Isloh" jurnalida publisistik maqolalari muntazam bosilib turgan edi. Uning maqolalarida mahalliy xalqning ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy hayoti manzaralari niyojatda yorqin tasvirlangan. Jumladan, "Bid'atmi? majusiyatmi?" nomli maqolasida diniy bid'atlar qatori qimorbozlik, ichkilikka mukkasidan ketish holatlarini tangid qilib, islam dinining sofligi va taraqqiyoti ilm-ma'rifat bilan bog'liqligini ochib bergan. "Maktabi dor ul-aytom" maqolasida esa Qo'qon shahridagi Bekbachcha mahallasi ta'sis etilgan yangi tipdagi maktabning ahamiyatini qalamga olgan.

Hamza o'z davrining ilg'or ma'rifatparvar jadidlari bilan yaqin aloqa o'rnatgan, ular bilan hamkorlik qilgan. Ijodida Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik yo'lidagi harakatlariga alohida hurmat bilan qaradi. Toshkentda Turkiston jadidchilik harakatining rahbari Munavvarqori Abdurashidxonov va uning atrofidagi shogirdlari, usuli-jadid muallimlari aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiyat bilan yaqin aloqa o'rnatdi. Hamza ijodiga jadidchilik g'oyalari kirib kelishi, yuqorida aytiganidek, Munavvarqorining muborak ismi bilan bog'liq. Bu haqda so'zni davom ettirishdan avval bir faktini qayta mushohada etish lozim ko'rindadi.

G a p s h u n d a k i , hamzashunoslar "Milliy ashulalar"ning nashr etilishi haqida so'zlab, uning 1915-yilda tuzilgani va o'sha yilning sentyabr - oktyabr oylarida Qo'qonda toshbosmada chop etilgani haqida ma'lumot berib kelganlar. Ammo Munavvarqorining Hamza arxivida saqlanib qolgan xatlaridan majmuanning nashr etilish tarixiga doir yangi ma'lum yuzaga chiqadi.

Munavvarqorining 1916-yil 1-yanvar sanali xatidan ma'lum bo'lishicha, Hamza unga "Feruzaxonim" asari, "Yengil adabiyot" risolasi va bir she'riy kitobini yuborib, ustozning shu asarlar haqidagi fikrini bilmochi va, iloji bo'lsa, "Turkiston" kutubxonasi yordamida chop ettirmoqchi bo'lgan. Aftidan Hamza Munavvarqoriga zikr etilgan asarlari bilan birga "Milliy ashulalar"ni ham yuborgan. Ustozning 1916-yil 17-fevralda

bitilgan xati bu haqda ma'lumot beribgina, qolmay, "Milliy ashulalar"ning Qo'qonda Hamza tomonidan chop etilgani xususidagi fikrga ham aniqlik kiritidi. Xatda: "Birodari azizim! Muktublarining vaqtida javob yozsa olmag' onlig'im xususinda afvingizni istorhom qilurman. Kitoblarining ko'rdimi. "Milliy ashulalar"ingizni o'z ismingizdan tab' ettdirdim. Yaxshi qag'ozda 12 bet bo'lib, ming donasi 28 so'mlarga tushdi. Hozirda taxlovchida. Bahosini 6 tyin, pochta ila 8 tyin qo'ydim. Hammasi bo'lib 895 nusxa kitob bo'lsa kerak. Qag'oz va boshqa masoriflari shirkat ("Turkiston" shirkati nazarda utilmoqda) tarafindan tutildi. Emidlilka shirkatga xizmat haqi uchun necha nusxa marhamat qilsangiz, maal tashakkur, ortib qolg'onini o'zingizg'a yuborurmiz. Faqat 28 so'mni kutubxonaga tezroq perevod qiluvizing rijo o'linur. Avvalgi she'r kitobingiz qag'oz qahatligi sababli bosilmay turubdu... "Milliy ashulalar"ingiz ox va kichkina bo'lg'on sababli bosturildi. Boshqa asarlarining to'g'risida inshoollo bilzot ko'rushub so'ylashurmiz", deya bayon etilgan. Abdurashidxonovning bu va boshqa xatlariga asoslangan

kishilar ekanini, ular bolalarga hech narsa o'rgata olmasligini tushunar va shuning uchun ularni ayovsiz fosh qilardi", degan ma'lumotni uchratamiz.

Maqolada sho'irning ijodiy faoliyatini sun'iy ravishda soxtalashtirilganini ko'rishimiz mumkin. Chunoncha, 1914-yilda "Sadoyi Farg'on'a" gazetasida jadid maktablarida ishlash uchun 2 o'qituvchi kerakligi haqida mana bunday e'lon bosiladi: "Namoz o'qiydigan, ichkilik ichmoydigan, aysishiratdan yiroq ikki muallim kerak... yaxshi vazifa berilur. Adres idorada". Ushbu ma'lumotlar Hamzaning jadid ma'rifatparvarlaridan biri bo'lgani, uning pedagogik didi va ma'naviyati naqadar nozikligindan dalolat beradi.

O'zbek jadid dramalari haqida so'z yuritish uning mualliflari yoki o'sha davr tushunchasi bilan aytganda, musannif yoki muharrirlari xususida hamda sahnalashtrilishi, chop etilishidan qat'i nazar, yaratigan pesalarining miqdor-salmog'i xususidagi ayrim tafsilotlarni taqozo etadi. Chunki avval aytganimizdek, bu davr dramaturgiyasiga bepisidan qarash yoki sovet davrida olqishlab, keyin faqat Hamza ijodini ajratib olib, qolganidan

hujjatlarida ham qayd qilingan.

**Hamza 1918-yilda Farg'onaga qaytdi va butun kuchini teatr sohasiga big'ishladi, teatr truppalar bilan hamkorlikda sahna asarlar qo'ydi. Qo'gonda muallimlikni davom ettirdi, undan Farg'onaga kelib, madaniy-ma'rifiy tashkilotga kirib teatr tuzdi. Aynan shu yillarda sovetlar tomoniga o'tib, o'z qobiliyatini badiiy ijdoga emas, sovet hukumatining targ'ibot-tashviqot ishlariga safarbar etdi. Sovet hokimiyatining yangi shaklidagi mustamlaqachilik siyosatini ko'ra olmadi.**

1920-yildan so'ng shuhrati so'nib, ijodkorlik shijoati sustlashti, o'zi ham qashqashlashib qoldi. 1921-1922-yillarda Farg'on'a Obkomi topshirig'i bilan Buxoro va Xorazmga ilk xalq respublikalari tajribalarini o'rganish maqsadida yuborildi. Loyihani tugatgach, Xo'jayli maktabida direktor bo'lib Xorazmda yana ikki yil ishladi. Hamzaning shaxsiy kundaliklari o'rganilganda u bajaratyotgan ishi, yolg'izlik va qog'ozbozlikdan nafratlangani, lekin maoshni deb ishlashta majbur bo'lganini sezish mumkin. 1924-yili Xorazmdan qaytdi - bu gal ham ishish, qarzga botib va sog'ligi yomonlashib kun kechirdi. Farg'onaning Avval qishlog'iida ikki-uch yil shunday yashadi. O'sha paytdagi O'zbekiston hukumati rahbari Yo'Idosh Oxunboboyevga bog'lanib, bir necha sahna ko'rinishlariga buyurma oldi va jamoatchilik hayotiga qaytdi. 1928-yil avgust oyida sovetlar o'z siyosatini amalga oshirish, jamaoa xo'jaliklarini tashkil qilish, islam diniy xurofotiga qarshi kurashish uchun sho'irni

Shohimardonga yuboradi. Ammo u yerda sho'ir qattiq qarshilikka uchradi. Sovet hukumati bo'lgan voqealarni bilsa-da, amalda sho'irni qo'llab-quvvatlamadi. Hamza o'zining ijodida o'zbek xotin-qizlarining huquqiy tengligi va ularning ilmi bo'lisliga alohida e'tibor qaratgan. Ayollarni ozodlikka chiqarishini jadidlar ham hohlagan, lekin ular bu ishda sovetlar qo'llayotgan usullardan norozi edi. Garchi Hamza "Hujum" harakatining eng shioati tarafdoi bo'lsada, matbuotda unga qarshi chiqishi kuzatilmagan. 1927-yillarda "O'zbek xotini tilidan", "O'zbek xotin-qizlariga", "Ozod xotin-qizlar qo'shig'i", "Bu kun - 8 mart", "Xotin qizlar ovozi", 1928-yilda esa "Hujum", "Muborak", "Uzilgan chechaklar", "Tursunoy marsiyasi" kabi she'rlar yozdi. Ularning barchasi ayollarni ma'rifatga chorlovchi g'oyalar bilan sug'orilgan edi.

1927-yil iyul oydi Hamza Qo'qon temir yo'l ishchilar kulubida havaskorlar to'dasini tuzdi va rejissyorlik qildi. Sho'irning Qo'qon yoshlari orasida ta'siri kuchli bo'lgan. U qanday yangi she'r yozgan va kuy yaratgan bo'lsa, maktablardagi adapbiyot va san'at to'garaklarida yod olinar va shaharga yollar edi. Muhim ijtimoiy, siyosiy masalalar borasidagi hur fikrleri "Yig'la, Turkiston", "Jonlarning janoni Vatan", "Dardiga darmon istamas" she'rlarida, "Loshmon fojasি", "Muxtoriyat yoki avtonomiya", "Burungi qozilar", "El quzg'unlari", "Jahon sarmoyasining oxirgi kunlari" kabi asarlarida o'z ifodasini topgan. Millatning ziyyori farzandlari Joniga xatar solgan murakkab va ziddiyatlidagi davrlarda Hamza ijodida murosaga moyillik, komfirqa mafkarasi tasiriga yon berishi sezilib turadi.

Xulosa qilib aytganda, Hamza Hakimzoda Niyoziy xalqini, shuningdek, yosh avlodni o'qitish, ma'rifati qilish, tarbyiyatishiga o'zingin butun iqtidorini, umrini bag'ishladi. Lirik sho'ir, demokrat-ma'rifatparvar kuychi sifatida ijod qildi. Afsuski, u yaratgan ijod namunalardan bir qo'llanma kitob, bir roman, to'rt dramatik asar matni yoki ulardan biror qism shu vaqtgacha topilgan emas. Demak, Turkiston xalqlari tarixida chuqur iz qoldirgan ulkan ijtimoiy-siyosiy harakat - jadidchilik yangidan, xolisonsa o'rganilishi lozim bo'lgan tarixiy jarayonlar jumlasidandir.

**Shavkatjon XONQULOV,** Farg'on'a politexnika instituti katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) «Yangi O'zbekiston» gazetasining 44-sonidan olindi.

## MUNAVVARQORINING 1916-YIL 1-YANVAR SANALI XATIDAN MA'LUM BO'LISHICHA,

HAMZA UNGA "FERUZAXONIM" ASARI, "YENGLI ADABIYOT" RISOLASI VA BIR SHE'RIY KITOBINI YUBORIB, USTOZNING SHU ASARLAR HAQIDI FIKRINI BILMOQCHI VA, ILOJI BO'LSA, "TURKISTON" KUTUBXONASI YORDAMIDA CHOP ETIRMOKCHI BO'LGAN.

holda shuni qayd etish lozimki, Hamza Toshkentdan ketganidan keyin ham pir deb e'tirof etgan siymo bilan muntazam aloqada bo'lib, unga yozgan asarlarini yuborgan va uning fikrini olib turgan. U Munavvarqori ictiyoridagi "Turkiston" kutubxonasi nashr imkoniyatlaridan foydalanan niyatida bo'lgan. Hamza "Feruzaxonim", "Yengil adabiyot" va "Milliy ashulalar"ni ustozdan oлган "milliy saboqlar"ning amaliy samarasini sifatida, go'yo ijodiy hisobot tarzida unga yuborgan. Ammo sovet davrida Hamza kabi jadidlar faoliyatini xususidagi ma'lumotlar soxtalashtirilib, bu borada ko'plab maqolalar chop etilgan. Masalan, S. Rajabovning "Hakimzoda Niyoziyning pedagogik merosi" maqolasida "Hamza Hakimzoda eski va jadid maktablar muallimlari ko'philigi o'z tilidan boshqa tilni bilmas, chalasavod, madaniyatsiz, ba'zan axloqsiz

ko'z yumish yoki e'tiborsiz qoldirish adabiyotshunoslik va teatrshunoslikning katta kamchiligidir. H.H.Niyoziyning ijodiy faoliyatining ikkinchi bosqichi 1918-yildan boshlandi. Sho'irning 1917-yil oktabr to'ntarishigacha bo'lgan ijodidagi asosiy g'oya ma'rifatparvarlikdirdi, u bu davrda jadid adabiyotining yirik namoyandasini sifatida badiiy ijodning hamma imkoniyatlaridan, adabiy tur va janrlaridan foydalandi. Barcha jadid mutafakkirlari singari u ham 1917-yil fevral voqealaridan so'ng hammasi tugadi, Turkiston xalqlari mustamla qulligidan czod bo'ldi, deb o'yaldi. "Sho'roi Islomiya" jamiyatining dastlabki faol a'zolaridan biri bo'ldi. U ushu jamiyat bilan iliq munosabati, qolaversa, Turkiston Muxtoriyati hukumi faoliyatida asosiy o'rinni tulg'an Obidjon Mahmudov, Saidnosir Mirjalilovlar bilan yangin aloqada bo'lgani shaxsiy arxiv



BAHOR KELDI SENI SO'ROQLAB...

Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,  
O'rlik gullarining eding maftuni.  
Har uyg'ongan kurtak hayot bergen kabi  
Ko'zlarining surtib o'padding uni.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,  
Ul ham yosh to'kdiyu, chekindi nari.

Seni izarlar ekan, bo'lib shabboda,  
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.  
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rki,  
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,  
Jarliklarga olib ketdi boshini.  
Farhod tog'laridan daraging izlab.  
Soylarga qulatdi tog'ning toshini.

Qirlarga ilk chiqqan qo'ychivonlardan  
Qayda shoir, deya aylidi so'roq.  
Barida sukonat, ma'yuslik ko'rib,  
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,  
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.  
Singib yosh kuydirgan za'far yonog'imga  
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Lekin yotog'imda seni topolmay,  
Bir nuqtada goldi uzoq tikilib.  
Yana yet bo'ldi-yu, kezib sarsari,  
Menden so'ray ketdi qalbinni tilib:

«Qani men kelganda kulib qarshilab,  
Qo'shig'i mavjilanib bir daryo oqqan?  
«Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab»  
Meni she'rga o'rab, suqlanib boqgan?

O'rlik gullariga tonmaydi nega,  
Elda hilpiratib jingala sochin?  
Nega men keltirgan sho'x nashidaga  
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qanday ishqqa to'lib boqardi tongga,  
Kamol toptirardi keng xayolimni.  
Uning rangdor, jozib qo'shig'ida,  
Mudom ko'rар edim o'z jamolimni.

Qani o'sha kuychi, xayolechan yigit?  
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.  
Nechun qora libos, sochlaringda og,  
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?».

Qanday javob aytay, loldir tillarim.  
Baridan tutdim-u, keldim goshingga.  
U ham g'aming bilan kezdi aftoda,  
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamida tutoqib daraxtga ko'chdi.  
Kurtakni uyg'otib so'yadi g'annok.  
Sening yoding bilan yelib begaror,  
Gullar g'unchasini etdi choc-chok.

Gulu rayhonlarning taraldı atri,  
Samoni gopladi mayin bir qo'shig'.  
Bu qo'shig' naqadar oshno, yaqin,  
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda,  
Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast.  
O'Imagan ekansan, jonim, sen hayot,  
Men ham halis sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,  
Hayotini kuylayman, chekinar alam.  
Tunlar tushimdasan, kundus yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

## Enaxon Siddigova

## AYOL KETIB BORAR...

Ayol ketib borar yoniб, guvillab,  
Ko'ngliga tiriklik qo'ng'iroqlari.  
Shamollar poyiga yig'lar bosh urib.  
Sochib yuboradi gul yaproqlarini.  
Ketib borar ayol... ko'ngliga ishamas.  
Tikib tiriklikning bayroqlarini.  
Qulog'i kar dunyo hayhot eshitimas,  
Seliday toshgan faryod, ingroqlarini.  
Ayol ketib borar... tunday yoyilgan  
Baxtsizlikday qaro sochlari g'ami.  
Ko'ngil mehrobiga yoqib qo'yilgan,  
Qirg'bitta joning qirg'bitta shami.  
Ketib borar ayol... yolg'izlik aro  
Sirpanchiq yo'llari, qirovli, muzli.  
Onhazratning ummatlari, xeshlari,  
Hazrati erkaklar, eshiyapsizmi?  
Bu ketishi go'yo ko'chkilari kabi.  
Qurban qushday to'zg'ir dil rishtalar.  
Muhabbatdan ketar, ko'ngildan ketar  
Xudoning yerdagi farishtalari.  
Ketib borar ayol yoniб guvillab

Halima  
Xudoyberdiyeva



MUQADDAS AYOL

Oshiglaring poying gul otib ham bo'ldi,  
Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo'ldi,  
Va bu haqda kimlargadir sorib ham bo'ldi.  
Sen baribir muqaddassan, muqaddas Ayol!

Avval: "Kel-ey, quchog'imga to'l, balq", dedilar,  
Unamading, ayol o'zi "ters xalq", dedilar.  
Icholmagach yuz o'girib sho'rt, talx, dedilar,  
Sen baribir muqaddassan, muqaddas Ayol!

Sen daryosan, o'pganini qirg'oq yashirar,  
Jufitim bo'l, - deb chogpanini har toq yashirar,  
Jamatting, - deb quvonmasdan qumloq yashirar,  
Sen baribir muqaddassan, muqaddas Ayol!

Asli bu bor ermaklarning borar yeri - Sen,  
Rostu yolg' on erkaklarning borar yeri - Sen.  
Asov otday erkaklarning borar yeri - Sen,  
Sen baribir muqaddassan, muqaddas Ayol!

Chorlashganda sen kelsang, goh bekor kelsang-da,  
Mast davraga bir sarin yel, bir tor kelsang-da,  
Xor kelsang-da, nomardlarga goh xor kelsang-da,  
Sen baribir muqaddassan, muqaddas Ayol!

Qimtinasan, astagina ko'tarasan bosh,  
Ming yillikadir, ko'zingdag'i jovidiragan yosh,  
Gunohkorlar mingu bitta Senga tegar tosh,  
Sen baribir muqaddassan, muqaddas Ayol!

Harir, xushbo'y badamingda toshlar izi bor,  
Ko'kragingda egilgan ne boshlar izi bor,  
Quyosh izi, kuydirgan quyoqlar izi bor,  
Sen baribir muqaddassan, muqaddas Ayol!

Shukurkim, ko'nglim osmoni uzra mahbubim ohim bor,  
Misoli Kabai-olam degudek sajdagohim bor, dod-ay.  
Qo'shiqqa to'idiruman to'Imagen bo'lsa bu olamni,  
Qo'limda sen degan torim, dilimda qancha ohim bor-ay.  
Saboh rohatda uyg'onnish hamisha bulbul ohidin.  
Mening ham endi bulbuldek ohim bor, sabohlardan guvohim bor.  
Mening ham endi bulbuldek ohim bor, sabohlardan guvohim bor.  
Dod-ay, dod-ay.  
Yo'qlatmagan har kuning yilcha bo'lurmum, hay-hay.  
Shunehalik shafsat bilmas, tilcha bo'lurmum, hay-hay?  
(Xush) Surating bir nafas tinch qo'ymas xayolimni  
Ko'z shahlo-yu qoshi sanilcha bo'lurmum, hay-hay?  
Har sozi yuz andisha, qilgil donoligingni,  
Ko'ngilning nozikligi qilcha bo'lurmum, hay-hay?  
Goh ajal, goh asaldek sozlarindan dog'daman,  
Jon olib, jon berguvchi shuncha bo'lurmum, hay-hay?  
Vashlingi umididin dunyodan o'tib borgum,  
Qanoatda Sa'ida filcha bo'lurmum, hay-hay?  
Vashlingi umididin dunyodan o'tib borgum,  
Qanoatda Zulayho filcha bo'lurmum, hay-hay?  
Yo'qlatmagan har kuning yilcha bo'lurmum, hay-hay.  
Shunehalik shafsat bilmas, tilcha bo'lurmum, hay-hay?  
Jon olib, jon berguvchi shuncha bo'lurmum, hay-hay?

- Mart -  
Xalgaro xotin-qizlar kuni

## Sharifa Salimova



MEHR

Har kim o'z jannatin o'zicha sevar,  
Dilda borin ayilar o'zicha talqin.  
Men seni quyosh deb, tortdim xijolat,  
Vasfingga ming qalam ojizdir, xalqim.

Qo'hiqof tog'larin zavorlari ham  
Azamat yelkangga qo'ndirmas g'ubor.  
Muqaddas turproq'ing zarralarida  
Ulug' ajoddolaring bitiklari bor.

Har kim o'z jannatin o'zicha sevar,  
Qo'shiqlar bitadi yona va yona.  
Ona Vatan mehrin sokin so'zlaydi,  
Amir Temur yotgan ulug' xilxona.

Shoirlar ko'ksida guvillar daryo,  
Har bir giyoh unga aytib turar she'r.  
Daryolar quylgan ummon ko'ksida  
So'z durlarin sochar ulug' Alisher.

Har kim o'z jannatin o'zicha sevar,  
Sen - Onam! Onadan hech kim tonolmas.  
Yuragimda o'sgan ulkan daraxtni,  
Ko'ksimdan sug'urib hech kim olotmas.

## Mahabo Karimova



BIR KUN O'ZING UCHUN  
YASHAGIN AYOL!

Hayotning har qanday shartiga ko'nding,  
Ay't qachon ko'ksingga tegibdi shamol?!

Bola-chaqa deding, ro'zg'or, ish deding,  
Bir kun o'zing uchun yashagin ayo!

Sen - arning aybini yopgvuchi qalqon,  
Oila ko'rkiга berarsan sayqal.  
Mayliga har kummas, lekin har zam'on,  
Bir kun o'zing uchun yashagin ayo!

Shaffof ko'zgularni qo'lingga olib,  
Oltin qo'g'irchoqdek yasangin xushhol.  
Yuzingga upa suri, yaxshilab kiyinib,  
Bir kun o'zing uchun yashagin ayo!

Gohida dard birla tilinsa bag'ring,  
Go'yo to'lishmayin qolgandalay hilol.  
Qadrinagi bunchalar arzon qilmayin,  
Bir kun o'zing uchun yashagin ayo!

Kunlarni o'tkazding yelib, yugurib,  
Qo'y endi ko'ngligni yozgin kelagol.  
Buguncha yornimas, o'zingni sevib,  
Bir kun o'zing uchun yashagin ayo!

## Farida Afro'z



AYOLGA BAXT BERING

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.  
Ayl kulib turib o'lishi mumkin,  
Dunyonli olishi mumkin jilmayib.

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Gar ko'zlarli kulib tursa-da,  
Bo'g'zining ostida necha ming hasrat,  
Oy yuzlari kulib tursa-da...

Ko'nglini ko'taring hech bo'limganda,  
Qo'lini silashga shafoat toping.  
Yig'lab turganida hech bo'limganda,  
Yoshini artishga muruvvat toping.

Nogoh yerga tushsa oppoq ro'moli,  
Bosib o'tmaslikka shafoat toping.  
Chaqaloq yalagan etaklarini  
Toza deb aytishga adolat toping.

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.  
Ayl kulib turib o'lishi mumkin,  
Dunyonli olishi mumkin jilmayib.

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Illohi nur toping, hidoyat toping.  
Illohi baxti bergan aylonidan  
Baxtiyor o'tmokqa inoyat toping.

Illohi qalgonsiz, illohi go'rg'onsiz  
G'iybatlar yirtmasin ko'ylakkinasin.  
Illohi hushyorsiz, illohd bedorsiz,  
Ittar tishlamasini yurakkinasin.

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Tog' qimirlab, toshlar so'zga kirsa-da,  
Ayolga baxt bering, saodat bering, —  
Oltishiga kirsa-da, yuzga kirsa-da.

## Kebo Mirzayeva



Yo'q,  
Endi ko'nglindan chiqarolmaysan,  
Umringda quyoshday porlayveraman.  
Ming yillarda qo'riga ketganinda ham,  
Men seni samoday chorlayveraman.

Ismingni tonglarga yozaman mahtal,  
G'unchalar bargida uxlayveraman.  
Yo'q, baxting meningsiz bo'lomas tugal,  
Men seni har lazo yo'qlayveraman.

Otashman,  
Dengizman,  
Samoman,  
Nurman,  
Jismu jahoningni o'rayveraman,  
Ayt, qanday topasan, gochmioqqa imkon —  
Men seni Xudodan so'rayveraman.

Men - so'ngti tomchiman,  
Yagona najot.  
Faqat sen ichg'in deb qistayveraman.  
Qo'llarimda goldi  
Eng so'nggi hayot,  
O'slam ham ishqingini istayveraman!

## Guljamol Asgarova



Men sizni bezovta qilmasman ortiq  
Bildim bo'g'zingizga kelmish malolim.  
Ammo men netayki ishqisiz dunyoda,  
Mudom bo'yningizda qolmish zavolim.

Yodingizga yodim maloli kelmish,  
Ko'zingiz zerikkan mendan bilaman.  
Go'zal tuyg'ularim xo'rangan joyda,  
Men nima qilaman?

Yig'lab chorlamasman ilojin topsam,  
Endi ko'zingizda otmas tonglarim  
Nurdan tuproqqacha sirli dunyoda  
Men sizni angladim!

Nur izlab kelgandim dunyoingizga.  
Zulmatlar darchasin yopolmadim hech.  
Ayrilik ranglari to'igan dunyoda  
Men yashil rangimni topolmadim hech.

Xayr, men o'ziga begona odam  
Sizga ham qadron bo'lmos' im qiyin.  
Mabodo sog'iniq qolsangiz agar,  
Qo'ng'iroq qilarman...  
Ming yildan keyin.

## Dildora Abdinazarova



O'TINCH

Hayot, ko'nib keldim barcha shartingga,  
Bitta so'z demadim, egdim boshimni.  
Atayin tuz sepih bitmas dardimga,  
Marjon misol to'kdung achchiq yoshimni.

Hayot ko'nib o'tdim barcha shartingga,  
Opanga g'am berding, ukanga armon.  
Uchratmading hatto bitta mardingga,  
Har kuni uyimga dard bo'ldi mehmon.

Hayot ko'nib o'tgum, buzmasman ahdim,  
Mayli, joni shodlik, quvonch bilmasim.  
Faqat bir o'tinchim, faqat bir shartim,  
Onam yig'lamasim, otam simmasim.



## Malika Tavfiq



Asli gul sen uchun yaralgan,  
Kimlardir poying sochsin deb.  
Majnuntol sochlari taralgan,  
Visolda bag'rini ochsin deb.

Necha mard, necha alp qomatlar,  
Tiz cho'kkani bir go'zal qoshida.  
Men degan necha dev kelbatlar,  
Girgitton hur - pari boshida!

Senmasmi notavon maskanni,  
Istasa bir zumda bog' etgan.  
Istasa yigitni chil-parchin,  
Istasa ko'ksini tog' etgan.

Senmasmi sochlari mushk-anbar,  
Til bilan labida boli bor.  
Ko'rgandan jon so'rar muqarrar,  
Yuzida bir dona holi bor!

Senmasmi farosat, ong bilan,  
Necha qalb rishtasini bog'lagan.  
Senmasmi kafidayin ko'ksiga,  
Ollohim ikki jon joylagan.

Puryigor tog'lar ham tiz cho'kar,  
Zabit etsa yigitning mardiga.  
Lek o'sha mardi ham dosh bermas,  
To'lg'oqning oniylik dardiga.

O'sha sen hofizni sayratib,  
Shoiring so'zini she'r qilgan.  
Chin sevsu bag'ringda yayratib,  
Aldasa qadrini yer qilgan!

Ibosan, vafosan, hayosan,  
Sehrning qudrati sendan kam.  
Ne ajab bir bo'lak suyakdan,  
Ollohim mo'jiza yaratag!

Sen bilan bu olam munavvar,  
Navosan, sabosan, xavolsan.  
Hamisha mukarram, mo'tabar,  
Ayolsan azizam, ayolsan!

## Gulnoz Mo'minova

Anduhning ildizi jominda manim,  
Qobilning gunohi qominda manim,  
Yor, isming dil otili konimda manim,  
Sen menga boqmayin o'tsang, na iloj?

Qonimni qoraytdi jannat sog'inch'i,  
Rumiy topib bergen naydir ovunchim.  
Lekin qo'lga olsam - golmagay tinchim,  
Noshud sozandangan kechsang, na iloj?

Gu'lman - ko'z yoshimni gulob degaylar,  
Azaldan ishq ahlin xarob degaylar,  
Sahromda ko'rinsam - sarob degaylar,  
Tashmalar intilgan rudsan\*, na iloj?

Osiyman, bir bo'ldi ikki dunyoyim,  
O'zingga, o'zimga ayon savdoyim,  
Bariga qo'l siltar chog'da, Xudoyim...  
Ruhim ildizidan tutsong, na iloj?

Seni o'ya solmas ayol qismati -  
Havvo gunohining halol qismati.  
Ul - o't-la o'ynashgan shamol qismati!  
Yor, ro'zi mahsharda kutsang, na iloj?  
Vaslingga yetolmay o'tsam, na iloj?



- Yaqin dugonam 3 million so'm migdorida qarz olgandi. "Ishonchi bo'sin", deb pulni qarz sifatida olganligi to'g'risida tilxat ham yozib bergandi. Uning erta-indini tugaymatapit. Dugonam yozib bergan "Tilxat"ning huquqiy kuchi bormi?

Shahlo Abdunazarova,  
Samarqand viloyati,  
Urgut tumani

- Albatta, dugonangiz tomonidan yozilgan va uning qarz olganligini tasdiqlovchi "Tilxat" yuridik oqibatlarni keltirish chiqaradi. Chunki tilxat oddiy, yozma shaklda tuzilgan hujja hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 733-moddasiga ko'ra, fuqarolar o'rtaida qarz shartnomasi, agar u qarzning summasi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy, yozma shaklda tuzilishi shart. Agar qarz oluvchining tilxati yoki unga qarz beruvchi

tomonidan muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashyolar topshirilganligini tasdiqlaydigan hujjat mavjud bo'lsa, qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 109-moddasiga ko'ra, bitimning oddiy yozma shakliga riyoa qilmaslik, uning haqiqiy emasligha olib kelmaydi. Demak, siz ushbu tilxatni asos qilib, sudda qarzni undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishingiz mumkin. Bundan



tashqari, tilxatning mavjudligi, sizga sudda uning mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarining ko'sratuvlari bilan tasdiqlash huquqini beradi.

[huquqshunos.uz](http://huquqshunos.uz)




## FARG'ONANING FAOL VA TASHABBUSKOR XOTIN-QIZLARI

Ayol – mo'tabar zot. Bugunning ayoli Vatanimiz taraqqiyoti, oila va jamiatyayotida muhim o'rinn va mavqevi ega. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi barcha jahbalar, xususan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, fermerlik, sog'liqni saqlash, ta'lif, ma'rifat, madaniyat va

boshqa sohalarda xotin-qizlar samarali mehnat qilmoqda. Farg'ona viloyatida ham barcha sohalar, ayniqsa, ishlab chiqarish, ta'lif, sog'liqni saqlash hamda qishloq xo'jaligida faol va tashabbuskor ayollar ko'plab topiladi. Ular o'z fidoyi mehnati bilan el orasida obro'-e'tibor qozongan.

Muqimjon QODIROV

## XOTIN-QIZLAR O'RTASIDA I XALQARO SHAXMAT TURNIRI O'TKAZILMOQDA



Xalqaro shaxmat akademiyasida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, FIDE, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida "Women's Chess Championship" I Xalqaro shaxmat turniriga start berildi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 5-avgustdag'i "Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan turnir 9 turdan iborat bo'lib, 2 ta guruh kesimida o'tkazilmoqda. Turnirda ishtirok etish uchun 10 ga yaqin davlatlardan

100 dan ortiq shaxmatchilar ro'yxatdan o'tgan.

Yoshlar o'rtaida intellektual o'yinlari rivojlantirish, yoshlarining shaxmatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va shaxmatchilariga o'z ustida ishlashlari uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etilgan tadbirning umumiy mukofot jamg'armasi 50 ming AQSH dollarini tashkil qiladi.

Mazkur turnir 12-martga qadar davom etadi.

Gulnoza BOBOYEVA